

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“BANK ISHI” FAKULTETI
«BANK ISHI VA KORPORATIV MOLİYALAR» KAFEDRASI

Bitiruv malakaviy ishi
himoyaga ruxsat etildi
“Bank ishi” fakulteti dekani
I.f.n., dots. O. Ortiqov

«_____» _____ 2013 yil

Bitiruv malakaviy ishi
himoyaga ruxsat etiladi
Kafedra mudiri
I.f.d., prof. N.G'. Karimov

«_____» _____ 2013 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: “Kredit riskini boshqarishda mijozlarning kreditga layoqatliligi
tahlilining o'rni”

Bajardi: “Bank ishi” ta'lim yo'nalishi, BD-51
guruhi, 4-kurs talabasi Xanjarov.S.B.

Ilmiy rahbar: “Bank ishi va korporativ moliyalar”
kafedrası kat. o'q. Bobojonov. B.

Bitiruv malakaviy ish dastlabki himoyadan o'tganligi 2013 yil 6 maydagi
- sonli bayonnoma bilan rasmiylashtirilgan.

T O S h K E N T – 2 0 1 3

Mundarija

Kirish	3
I BOB. TIJORAT BANKLARINING FAOLIYATIDA KREDIT RISKLARINING NAZARIY ASOSLARI	8
1.1. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining mohiyati va uning xususiyatlari	8
1.2. Tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalarining o'rni va mohiyati	15
1.3. Kredit riskini mohiyati va uni yuzaga chiqish omillari	19
II BOB. TIJORAT BANKLARI KREDITLASH FAOLIYATIDA MIJOZNING KREDITGA LAYOQATLILIGINI ANIQLASHNING TAHLILI	25
2.1. Tijorat banklarida kredit operatsiyalarining tahlili (OATB "Agrobank" misolida)	25
2.2. Tijorat bankida kreditlash jarayonining tahlili	29
2.3. Tijorat bankida mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashning tahlili	39
III BOB. TIJORAT BANKLARIDA MIJOZNING KREDITGA LAYOQATLILIGINI ANIQLASHNING TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	48
3.1. Tijorat banklarida mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashning xorij tajribasi	48
3.2. Tijorat banklarida mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashning takomillashtirish yo'llari	52
Xulosa va takliflar	55
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	60

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz iqtisodiyotida bozor munosabatlarini yaratishga qaratilgan o'zgarishlarning barqaror borayotganligi kuzatilmoqda. Mustaqil moliyaviy siyosatni respublikaning byudjet tizimini mustaxkamlash, byudjet daromadlarining to'ldirilishini ta'minlaydigan va amaliy faollikni rag'batlantiradigan izchil soliq siyosatini o'tkazish, shuningdek korxona va tashkilotlarning, xususan tijorat banklarining kam moliyaviy axvolini sog'lomlashtirish, ularning tadbirkorlik va sarmoyadorlik faoliyatini rivojlantirish yo'li bilan shakllantirish mo'ljallanmoqda. Mamlakatimizda butunlay yangi bank tizimini vujudga keltirish mustaqil pul-kredit siyosatini o'tkazish imkonini yaratadi. O'zbekiston Respublikasining Markaziy bank boshchiligidagi ikki bo'g'inli bank tizimini tashkil qilish respublikaning iqtisodiy mustaqillikka erishish xamda bozor munosabatlariga o'tish ehtiyojlariga mos keladi.

Bugungi kunda banklar resurs bazasining muttasil o'sib borayotganligi, o'z navbatida banklarning kreditlash va investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytirib, bank aktivlari hajmining oshishiga imkon bermoqda. O'zbekiston Respublikasida bank tizimini rivojlantirish uchun keyingi yillarda bir qator aniq chora – tadbirlarni amalga oshirildi. Xususan, iqtisodiyotning pulga bo'lgan talabini to'liq qondirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va inflyatsiya darajasini 7-9 foizdan oshishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida muomaladagi pul massasining belgilangan parametrlar doirasida bo'lishiga, shuningdek valyuta va moliya bozorlarining barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, bank muassasalari tarmog'ini kengaytirish, mijozlarga bank xizmatlari ko'rsatish sifatini yanada oshirish va ularning zamonaviy turlarini joriy etish, kredit axboroti tizimini takomillashtirish va nobank kredit tashkilotlarini rivojlantirish bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Banklarda barqaror resurs bazasini shakllantirish va uni yanada kengaytirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida tijorat

banklarining banklarning aktiv operatsiyalar hajmini, jumladan, kreditlash va investitsiyalash imkoniyatlarini oshishiga zamin yaratdi. Tijorat banklarining jami aktivlari yil davomida 30,2 foizga oshib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 35,7 trln. so'mga etdi. Banklar tomonidan ajratilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i esa 30,5 foizga o'sib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 20,4 trln. so'mni tashkil etdi.¹

Mamlakatimizda keyingi vaqtlarda tijorat banklari faoliyatiga lizing, faktoring xizmatlari, mikro kreditlar va mikrolizinglar amaliyotga kiritildi, hamda ular jadal rivojlanib bormoqda. Tijorat banklari tomonidan olib boradigan aktiv operatsiyalari tarkibida kreditlar alohida o'rin egallaydi. Tijorat bankida kredit ma'lumki faqat qaytarib berish sharti bilangina emas, balki unga tegishli foiz stavkalari hisobga olingan holda beriladi, bu esa mablag' oluvchilar zimmasiga avvalo o'z maxsadlarini bankka, bu kreditlarni qaytarish muddatlariga rioya qila olishlari haqida jiddiy taxlil etilgandan so'ng beriladi. Chunki kredit va moliya operatsiyalari bank faoliyatining asosiy qismini qamrab oladigan hal qiluvchi bo'g'inidir.

Keyingi yillarda bank-moliya sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va ularning ko'lamini kengaytirish masalalari xukumatimizning doimiy e'tibori markazida bo'lib kelmoqda. Milliy bank tizimi faoliyatiga doimiy ravishda o'zining diqqat – e'tiborini qaratib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: “Banklar faoliyatida, o'tgan yildagi kabi, investitsiya faoliyatiga katta e'tibor qaratildi. 2012 yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar xajmi 2011 yilga nisbatan 1.3 barobar oshdi. Ajratilgan kreditlarning 76 foizidan ziyodi uch yildan ortiq muddatga berilgan uzoq muddati kreditlar ekani, ayniqsa, e'tibor molik”² deb alohida ta'kidlab o'tdi.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar yoki boshqa biror xo'jalik sub'ekti endilikda tijorat banklaridan asoslangan investitsiya va xo'jalik yuritish rejalarisiz, biznes rejasiz kredit, unga tenglashtirilgan resurslarni ilgaridek

¹ Банк ахборотномаси №5 2013

² Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. “Xalq so'zi” 19.01.2013

olish imkoniyatiga ega emaslar. Kredit, ma'lumki qaytib berish sharti bilan emas, balki unga tegishli foiz stavkalari hisobga olingan holda beriladi, bu esa mablag' oluvchilar zimmasiga avvalo o'z maqsadlarini tijorat bankiga, bu kreditlarni qaytarish muddatlariga rioya qila olishlari haqida jiddiy o'ylaganliklaridan so'ng beriladi. Mazkur faoliyatda tijorat banklari tomonidan mijozning kreditga layoqatliligini taxlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omil bizning bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini dolzarbligidan dalolat beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Tijorat banklarining kreditlash faoliyatining mohiyati va uni takomillashtirishning alohida nazariy va amaliy jixatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan Yu.A. Babicheva, M.K Bukato, E.V. Jukov , V.N. Kolesnikov, G.G. Korobova, R. Kotler, O.I. Lavrushin, I.O.Spitsin, V.M.Usoskin, E.B.Shirinskaya va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

Mamlakatimiz tijorat banklarining kreditlash faoliyatining mohiyati bo'yicha mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.Z.Abdullaeva, A.V.Vahobov, Bobaqulov T.I., O.O.Iminov, N.G'. Karimov, T.S.Malikov, F.I. Mirzaev, O.O.Olimjonov, O.Yu.Rashidov, I.R.Toymuhammedov va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Biz bitiruv malakaviy ishimizda tijorat banklarida mijozlarni kreditga layoqatliligini aniqlash bo'yicha faoliyatini so'nggi amaliy ma'lumotlar asosida tahlil qilishga xarakat qilamiz.

Ishning maksadi va vazifalari. Ishning maksadi bo'lib tijorat banklarida mijozlarni kreditga layoqatliligini aniqlashning zamonaviy xolatini taxlil etish orqali uni takomillashtirish bilan bog'lik bo'lgan amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Ishning oldiga qo'yilgan maqsadni ochish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi va amalga oshirildi:

- mamlakatimiz tijorat banklarining zamonaviy mohiyatini va ularning vazifalarini ochib berish;
- tijorat banklarning kredit operatsiyalari mohiyati va ularning bank faoliyatidagi o'rnini ochib berish;

- tijorat banklari faoliyatida kredit riskini yuzaga kelishi va uni boshqarishning xususiyatlarini ochib berish;

- tijorat banklarida mijozlarni kreditga layoqatliligini aniqlash tartibini tahlil etish;

- tijorat banklarida mijozni kreditga layoqatliligini aniqlashning xorij tajribasini yoritib berish;

- tijorat banklarida mijozni kreditga layoqatliligini aniqlash tartibini va xorij tajribasini chuqur o'rganib chiqqan xolda, undagi muammolarini aniqlash va ularni ijobiy hal etish yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ishning ob'ekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti bo'lib O'zbekiston tijorat banklarini kredit operatsiyalari va unda mijozni kreditga layoqatliligini aniqlash bo'yicha olib boradigan faoliyati hisoblanadi. Ishning predmeti bo'lib OATB "Agrobank"ning kredit operatsiyalari va unda mijozni kreditga layoqatliligini aniqlash bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Ishning natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undagi takliflar va hulosalar Respublika oliy o'quv yurtlarida bakalavriat yo'nalishida "Pul, kredit va banklar" va "Bank ishi" fanlari bo'yicha ma'ruzalar matnlari tayyorlashda foydalanish mumkin.

Ishning tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, hulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, uning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti hamda ish natijalarining amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Ishning birinchi bobida mamlakatimizda tijorat banklarining zamonaviy mohiyati va ularning vazifalari ochib berilgan. Mazkur bobda tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalari va unda yuzaga keladigan kredit riskini boshqarishning nazariy asoslari yoritib berilgan.

Ishning ikkinchi bobida tijorat banklarida kredit operatsiyalarini olib borish va unda mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash tartibi amaliy ma'lumotlar asosida tahlil etilgan.

Ishning uchinchi bobida tijorat banklarida mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashning xorij tajribasi keltirilgan. Ushbu bobda tijorat banklarida mijozni kreditga layoqatliligini aniqlash tartibini va xorij tajribasini chuqur o'rganib chiqqan xolda, undagi muammolarini aniqlash va ularni ijobiy hal etish yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Ishning xulosa va takliflar qismida bajarilgan ish natijalari umumlashtirilgan va qisqa bayon etilgan.

I BOB. TIJORAT BANKLARINING FAOLIYATIDA KREDIT RISKLARINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining mohiyati va uning xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida milliy bank tizimini rivojlantirish va mustaxkamlashtirish masalasiga doimo katta e'tibor berib kelinmoqda va u o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. "Mamlakatimiz moliya – bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. 2012 yilda bank tizimining jami kapitali 24.3 foizga, so'nggi uch yilda esa ikki barobar ko'paydi. Bugungi kunda kapitalning etarlilik darajasi 24.0 foizdan oshib, bu esa qabul qilingan umumiy xalqaro ko'rsatkichlardan 3 barobar ortiqdir. 2012 yil yakunlari bo'yicha bank tizimining likvidligi 65.0 foizdan ortmoqda, bu esa talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar yuqoridir"³

Xalqaro amaliyotda tijorat banklari mulkchilikka asoslanganligiga qaramasdan ixtisoslashgan faoliyatiga ko'ra ikki guruxga ajratiladi: universal va ixtisoslashtirilgan tijorat banklari. Ixtisoslashtirilgan tijorat banklari ma'lum faoliyat yo'nalishini olib boradi. Ushbu tijorat banklariga quyidagilar kiritiladi:

- jamg'arma tijorat banklari;
- ipoteka tijorat banklari;
- investitsion tijorat banklari;
- qishloq xo'jalik tijorat banklari;
- sanoat, savdo va boshqa tijorat banklari.

Universal tijorat banklari o'z mijozlariga barcha bank xizmatlari kompleksi ko'rsatadi. Mamlakatimizda mustaqillikni dastlabki davrlarida tijorat banklari asosan ixtisoslashtirilgan aktsiyadorlik tijorat banklari sifatida faoliyat olib borgan edilar. Lekin olib borilgan ixtisodiy islohotlar natijasida respublikamizda turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik sub'ektlarini tashkil topishi,

³ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. "Xalq so'zi" 19.01.2013

kichik va xususiy biznesni rivojlanishi natijasida ixtisoslashtirilgan tijorat banklari universal xizmat ko'rsatuvchi banklarga aylantirildi. Mamlakatimizda tijorat banklarining faoliyatini universalashuv jarayonini kuchayishini quyidagilar bilan izohlash mumkin. Milliy iqtisodiyotni rivojlanishi, bank xizmatlari bozorida sog'lom raqobatni kuchayib borishi natijasida tijorat banklari o'z faoliyatining ayrim segmentida ko'rgan zararlarini faoliyatining boshqa segmenidagi olingan daromad bilan qoplashi imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu omil tijorat banklari faoliyatida marketingning ahamiyatini oshishiga bevosita ta'sir etadi deb xisoblaymiz.

Mamlakatimizda tijorat banklarining faoliyati O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi va 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlari asosida shakllantirilgan va tartibga solib turiladi. Ushbu qonunchilikda asosan bizning mamlakatimizda ko'plab rivojlangan mamlakatlardagi kabi ikki pog'onali bank tizimi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Milliy bank tizimining birinchi pog'onasida qog'oz pullarni emissiya qilishda monopol, boshqa tijorat banklari faoliyatini tartibga solib turadigan «xukumat bankchisi», mamlakatda pul muomalasini tartibga solib turadigan «banklar banki» va oltin valyuta zahiralarini saqlovchisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki turadi.

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuning 1-moddasiga asosan «Bank – tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilinadigan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish:

- to'lovlarni amalga oshirish»

Tijorat banklari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kredit, xisob-kitob yuritish hamda vositachilik xizmatlarini ko'rsatadi. Halqaro amaliyotda tijorat

banklarini faoliyat yuritish asosida turli guruhlarga ajratadilar. Masalan, universal banklar, ixtisoslashgan banklar, ipoteka banklari, investitsiya banklari va xakazo. Bundan tashqari tijorat banklarining mulkchilik shakliga asosan ham turli guruhlarga ajratadilar. Dunyoning turli mamlakatlarida turli mulkchilik shaklidagi tijorat banklari faoliyat ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka asosan milliy bank tizimining ikkinchi pog'onasi hisoblangan tijorat banklari quyidagi mulkchilik shaklida tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi mumkin:

1. Davlat mulkchiligidagi banklar;
2. Aktsiyadorlik-tijorat mulkchiligidagi banklar;
3. Chet el kapitali ishtirokidagi banklar;
4. Xususiy mulkchilik shaklidagi banklar.

2012 yilda bank tizimidagi islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator Farmon va Qarorlarida belgilab berilgan bank tizimi barqarorligini yanada kuchaytirish, omonatchilar va kreditorlar manfaatini himoya qilinishini ta'minlash vazifalariga qaratildi.

2012 yilda respublika bank tizimidagi islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar" Dasturi hamda respublika moliya-bank tizimini rivojlantirishga oid boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga qaratildi, jumladan:

- bank nazorati tizimini yanada takomillashtirish, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini tatbiq etish bilan bog'lik tadbirlarni davom ettirish;

- mamlakat bank tizimi va tijorat banklari faoliyatini etakchi xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan qo'llaniladigan me'yor, andoza va ko'rsatkichlar asosida baholash amaliyotini kengaytirish;

- tijorat banklarining resurs bazasini ularning kapitallashuv darajasi hamda aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini depozitlarga jalb qilish orqali yanada oshirish;

- tijorat banklari aktivlarini, shu jumladan, ularning investitsion faolligini hamda ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha loyihalarni kreditlash hajmlarini oshirish;

- tijorat banklari balansiga olingan iqtisodiy nochor korxonalar faoliyatini tiklash, ular bazasida tashkil etilgan yangi korxonalarni strategik investorlarga sotish ishlarini yanada faollashtirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari, boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish hajmini kengaytirish;

- xalqaro andozalar va tamoyillar hamda mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi real holatidan kelib chiqqan holda moliya-bank sohasining qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish ishlari amalga oshirildi.

2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda 29 ta tijorat banki faoliyat yuritayotgan bo'lib, ularning 3 tasi davlat-tijorat banki, 13 tasi aktsiyadorlik-tijorat banki, 9 tasi xususiy bank va 4 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Respublikamizda faoliyat yuritilayotgan barcha bank muassasalari soni 9 551 taga etdi, jumladan, banklarning filiallari 829 tani tashkil etdi.

Respublikamizning har 100 mingta katta yoshli aholisiga yil yakuniga o'rtacha 49,7 ta bank muassasasi xizmat ko'rsatdi, bu esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 yanvardagi PQ-1464 sonli Qarori bilan tasdiqlangan indikatorlar tizimiga asosan "yuqori" bahoga muvofiq keladi.

Mamlakatimizda bank tizimining moliyaviy barqarorligi va rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 yanvardagi PQ-1464-sonli Qarori bilan tasdiqlangan indikatorlar tizimiga asosan baholanib kelinmoqda va


2012 yil yakuniga ko'ra ham bank sohasi bo'yicha indikatorlar "yuqori daraja"dagi baholarga ega bo'ldi .

Jumladan, respublika bank tizimi kapitalining etarlilik darajasi 24,3 foizni tashkil qilib, qabul qilingan xalqaro me'yorga nisbatan 3 barobar yuqori hamda bank tizimi likvidligi 65,5 foizni tashkil qilib, talab etiladigan eng kam darajadan 2 barobar yuqori bo'lishining ta'minlanganligi xalqaro moliya tashkilotlari va hamjamiyatning yuqori e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Natijada, "Fitch reytings", "Mudis" va "Standart end Purs" kabi etakchi xalqaro reyting kompaniyalarining ijobiy reytingini olgan tijorat banklari soni ko'payib bormoqda. Hozirgi kunga kelib, ushbu etakchi xalqaro reyting agentliklarining "barqaror" reytingini olgan tijorat banklari soni 28 taga etdi. "2010 yilda mamlakatimizning atigi 13 ta tijorat banki ijobiy xalqaro reytingga ega bo'lgan bo'lsa, ayni paytda ularning soni 28 taga etdi. Banklar faoliyatida, o'tgan yillardagi kabi, investitsiya faoliyatiga katta e'tibor qaratildi."⁴

Biz bitiruv malakaviy ishimizning quyidagi diagrammasida O'zbekiston Respublikasi bank tizimida xalqaro reyting baxosini olgan tijorat banklarining dinamikasini keltiramiz.

1 diagramma

O'zbekistonda reyting olgan tijorat banklari soni dinamikasi⁵



⁴ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. "Xalq so'zi" 19.01.2013


⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Shu bilan birga, “Mudis” reyting agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish istiqbollariga berilgan “barqaror” darajadagi reyting bahosi 2012 yilning 29 avgust kuni ketma-ket uchinchi yil qayta tasdiqlandi. “Mudis” agentligining hisobotida qulay iqtisodiy sharoit, faol investitsiya siyosati va banklar kapitallashuvining barqaror yuqori darajasi ushbu prognozning asosiy omillari bo‘ldi, deb qayd etilgan. Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan global nomutanosibliklarga qaramasdan, O‘zbekiston iqtisodiyoti, shu jumladan bank-moliya tizimi muttasil barqaror rivojlanmoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda tijorat banklarini resurs bazasini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu tadbirlar, o‘z navbatida, banklarning aktiv operatsiyalar hajmini, jumladan, kreditlash va investitsiyalashimkoniyatlarini oshishiga zamin yaratdi. Tijorat banklarining jami aktivlari yil davomida 30,2 foizga oshib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra 35,7 trln. so‘mga etdi.

2-diagramma⁶
(mlrd.so‘mda)

Tijorat banklarining aktivlari qoldig‘i dinamikasi



⁶ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida tayyorlandi


Banklar tomonidan ajratilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i esa 30,5 foizga o'sib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 20,4 trln. so'mni tashkil etdi. Ajratilgan kreditlarning 85,8 foizi ichki manbalar hisobiga berilgan bo'lib, tashqi qarzlari asosan uzoq muddatga, asosan iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilinmoqda.

Banklarning umumiy kredit portfelida uzoq muddatli kreditlarning ulushi esa, 76,8 foizni tashkil qilib, ularning hajmi 2011 yildagiga nisbatan 30,7 foizga oshdi.

3 diagramma⁷

(mlrd.so'mda)

Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari dinamikasi



Yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit, jumladan, banklarning kredit portfelida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan foyda solig'i stavkalarining joriy etilganligi tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Banklarning investitsiya kreditlari ustuvor ravishda "2011-2015 yillarda sanoatni rivojlantirish", «2012 yilgi

⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Investitsiya dasturi» hamda tarmoqlarni modernizatsiya qilish, mahalliy lashtirish va hududlarni rivojlantirish davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlashga, kichik biznes va xususiy tadbikorlik sub'ektlari tomonidan minitexnologiyalarni sotib olishga yo'naltirilmoqda.

2012 yilda korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik va texnik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 5 760 mlrd. so'm yoki 2011 yildagiga nisbatan 1,3 barobarga ko'p investitsiya kreditlari ajratildi.

Inqirozga qarshi choralar dasturi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi PF-4053-sonli "Iqtisodiyot real sektori korxonalarini moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2008 yil 28 noyabrdagi PF-4058-sonli "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarining qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi Farmonlarida belgilangan vazifalarning ijrosi izchil amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda bank infratuzilmasining kengayib borishi banklar o'rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmat turlari sifati va ko'lamining oshishiga xizmat qilmoqda. Bu ishlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatida kredit operatsiyalari muhim ahamiyatga ega. Biz bitiruv malakaviy ishimizning keyingi paragrafida tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalarining o'rni va mohiyatini yoritamiz.

1.2. Tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalarining o'rni va mohiyati

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalaridan asosiy maqsad daromad olishdir. Ular aktiv operatsiyalarni olib borishda amaldagi qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yo'riqnomalarida ko'zda tutilgan normativlarga qat'iy amal qilishlari, bank likvidliligi darajasini etarli darajada

saqlab turishlari va aktiv operatsiyalarining turlari bo'yicha risklarni oqilona taqsimlashlari lozim bo'ladi. Amalda o'rnatilgan tartib - qoidalar tijorat banklarini aktivlarining ba'zilarini daromad keltirmaydigan hamda kam daromad keltiradigan moddalariga yo'naltirishlarini talab etadi. Bunday aktivlarga asosiy vositalar, kassadagi naqd pullar, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi majburiy zahiralarini va boshqa aktivlarni keltirishimiz mumkin. Biz ta'kidlab o'tgan aktivlar, shu jumladan davlat qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar tijorat bankining likvidligini ta'minlab turadigan qo'yilmalar hisoblanadi. SHuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, tijorat bankining daromadlilik va uning likvidlilik qarama - qarshi munosabatdadir. Likvidlilikni oshirish bo'yicha qo'yilmalarni ko'payishi daromadlilikni oshirishga yo'naltirilgan qo'yilmalarni pasaytiradi.

Xalqaro amaliyotda va maxalliy iqtisodchi olimlarning tijorat banklarining aktiv operatsiyalarga berilgan ta'riflarni chuqur o'rganib, taxlil etib, hamda ularni taqqoslab chiqqan holda aktiv operatsiyalarga quyidagi ta'rif berilgan: «Aktiv operatsiyalar bu – tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning jalb etilgan vaqtincha bo'sh pul mablag'laridan hamda o'z mablag'laridan, o'z nomidan va o'z qaltisligi (riski) asosida ma'lum foyda topish uchun foydalanishdagi faoliyati majmuasidir». Bizning fikrimizcha ushbu ta'rif aktiv operatsiyalarining mohiyatini to'liqroq ochib beradi. Bunga quyidagi omillar asos bo'la oladi deb hisoblaymiz:

1. Tijorat banklarini nafaqat o'z mablag'laridan va shu bilan birga qaytarib berishlik, to'lovlilik shartlari asosida yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh pul mablag'laridan ham o'z nomidan operatsiyalarni olib boradi.

2. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarni olib borishdan nafaqat o'z nomidan balki, o'z qaltisligi asosida faoliyat yuritadi.

3. Xalqaro va maxalliy bank amaliyotida aktiv operatsiyalarning juda ko'p turlari mavjud, shuning uchun ta'rifda ularning barcha turlarini keltirish mumkin emas.

Iqtisodiy adabiyotlarda aktiv operatsiyalarning mohiyatini ochishda ularni an'anaviy va noa'naviy bank xizmatlariga xam ajratadilar. Chunki ularning fikricha tijorat banklari faqat o'zlariga xos vazifalardan tashqari boshqa xo'jalik yurituvchi korxonalarning ham vazifalarini bajaradilar. Lizing operatsiyalarini lizing kompaniyalari asosiy faoliyati sifatida amalga oshiradi. Lekin tijorat banklari daromad topish maqsadida ushbu faoliyatni xam olib boradi. Uchinchi shaxslarga kafolat berishlikni sug'urta kompaniyalari amalga oshiradilar, lekin banklar ham ushbu faoliyatni amalga oshiradilar. Investitsiya institutlari qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini (trast, reestr yuritish va boshqalar) asosiy faoliyat sifatida olib boradi. Tijorat banklari ham qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni olib borishlari qonunda belgilab qo'yilgan. Biz ilmiy izlanishimizda tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini mohiyatini ochishda ular keltiradigan daromadning shakliga asosan o'rganishga xarakat qilamiz. Ushbu yo'nalishda biz Berdiyarov B.T. ning fikrini ya'ni tijorat banklarining aktiv operatsiyalarni ikki guruhga ajratgan:

1. Foizli daromadlar.

2. Foizsiz daromadlar⁸ qo'llab - quvvatlaymiz. Biz ushbu fikrni kengroq tahlil etishga xarakat qilamiz. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarni olib borishda ularning juda ko'p turlaridan foydalanadilar. Bizning fikrimizch aktiv operatsiyalarning asosiy turlari quydagilardan iborat:

1. Yuridik va jismoniy shaxslarga turli muddatlarga, turli maqsadlarga va turli shartlar asosida kreditlar berish;

2. Bank mijozlariga vositachilik xizmatlari ko'rsatish;

3. Lizing operatsiyalarini amalga oshirish;

4. Xorijiy valyutalar bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

5. O'z nomidan va o'z xisobidan davlat va boshqa yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar qilish;

6. Investitsiya loyixalarini amalga oshirish;

⁸ Бердияров Б.Т. Тижорат банклари актив операцияларининг даромадлилиги. Бозор , пул, кредит. №6 2009
12 б

7. «Repo» shaklidagi operatsiyalarni amalga oshirish;
8. Qimmatbaho toshlar va metallar bilan operatsiyalarni amalga oshirish.
9. Boshqa turdagi a'nanaviy va noa'ananaviy xizmatlarni amalga oshirish.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining aktivlari bankning ixtisoslashganligiga, ustav kapitali miqdoriga, mijozlarning tarkibiga, bank xizmatlari bozoridagi raqobatga, bankda zamonaviy texnologiyalarni joriy etilganlik darajasiga va shunga o'xshash ko'p omillarga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga milliy bank tizimidagi qonunchilikning xususiyatlari, ya'ni undagi berilgan xuquqlar, majburiyatlar bilan bir qatorda o'rnatilgan cheklovlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi omillarni uzviy bog'liqlikda aktivlarni joylashtirish faoliyati olib boriladi.


Mamlakatimizda keyingi yillarda tijorat banklarini resurs bazasini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu tadbirlar, o'z navbatida, banklarning aktiv operatsiyalar hajmini, jumladan, kreditlash va investitsiyalashimkoniyatlarini oshishiga zamin yaratdi. Tijorat banklarining jami aktivlari yil davomida 30,2 foizga oshib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 35,7 trln. so'mga etdi. Biz quyidagi diagrammada tijorat banklari aktivlar tarkibida kreditlarning o'rnini ko'rsatamiz.

4 diagramma

Tijorat banklari aktivlar tarkibida kreditlarning o'rn⁹

(mlrd.so'mda)

⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi



Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda tijorat banklarining aktivlar tarkibida mijozlarga berilgan kreditlarning egallagan ulushi 50 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda. Agarda 2009 yilda bank aktivlar tarkibida kreditlarning ulushi 53,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilda 57,1 foizni tashkil etmoqda. Ushbu omil respublikamizda tijorat banklari faoliyatida kreditlarning egallagan o'rining yuqoridaligidan dalolat beradi.

Inqirozga qarshi choralar dasturi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi PF-4053-sonli "Iqtisodiyot real sektori korxonalarini moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2008 yil 28 noyabrdagi PF-4058-sonli "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarining qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi Farmonlarida belgilangan vazifalarning ijrosi izchil amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda bank infratuzilmasining kengayib borishi banklar o'rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmat turlari sifati va ko'lamining oshishiga xizmat qilmoqda. Bu ishlarni amalga oshirishda tijorat banklarini aktivlarini tasniflash va ularni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Biz bitiruv malakaviy ishimizni quyidagi paragrafida tijorat banklari kredit

operatsiyalarida kredit risklarini mohiyati va uni yuzaga chiqish omillarini yoritamiz.

1.3. Kredit riskining mohiyati va uni yuzaga chiqish omillari

Riskning tushunchasi va uning mohiyati yuzasidan iqtisodchi olimlar o'rtasida hozirgacha aniq bir echimga kelinmagan. Risk so'zi qadimgi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib, u «suv ostidagi qoya» degan ma'noni anglatadi. Bu so'zning kelib chiqishi qadimda Ispaniya va Portugaliya dengizchilarining savdo sotik bilan faol shug'ullanishlari xamda daromad keltiruvchi kemalarini ko'zga ko'rinmas suv ostidagi qoyalarga to'qnashib ketish xatarini oldini olish asosida kelib chiqqan. Shuning uchun Rossiyalik iqtisodchi olim V.T Sevruc riskga qo'yidagicha ta'rif beradi: «risk – bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'ldan chiqarish bilan bog'liq extimollar o'lchovidir». Professor V.M. Usoskin o'zining «Современный коммерческий банк» nomli izlanishida «Risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, oxiri o'z navbatida oldindan ko'ra bilish yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq bo'ladi»¹⁰ deb izoh beradi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar o'rtasida xam riskka yagona ta'rif berilmagan. Ko'pgina iqtisodchi olimlar riskga «tavakkalchilik», «xavf-xatar», «xato» va shunga uxshash ta'rif beradilar. Bu olimlar risk iqtisodiy kategoriya ekanligini va u insoniyat rivojlanish bosqichlarida mavjudligini tan oladilar. Agarda iqtisodiy adabiyotdagi riskga berilgan ta'riflarni umumlashtirilsa, quyidagi ma'noni bilish mumkin. Risk – bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, u jamiyat rivojlanishidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda aniq bir echimga ega bo'lmagan xolatning miqdor va sifat jixatidan qo'shimcha daromad ko'rish yoki ma'lum zarar ko'rish extimoliga aylanishi bilan bog'liq bo'lgan voqelikdir.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarining eng muxim bo'g'ini – bu iqtisodiy jixatdan erkinlik xisoblanadi. Mamlakat yuridik va jismoniy shaxslari o'zlarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini qo'shimcha daromad olish maqsadida

¹⁰Ш.З. Абдуллаева . Банк рисклари ва кредитлаш. Т.: Молия. 2005. 128 б

ularni tijorat banklari depozitlariga yoki qimmatli qog'ozlarga sarflashni ixtiyoriy tanlaydilar. Bu faoliyat esa mikro va makro mezon darajada turli xil risklarga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan siyosiy-iqtisodiyot siyosatni taxlil etsak, ya'ni:

- iqtisodiyotni bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tilishi;
- iqtisodiy isloxotlarni olib borishda davlat bosh isloxotchi ekanligi;
- davlat tomonidan ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolgan xolda dunyo bozorida raqobatbardosh soxalarni jadal rivojlantirishi;
- iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada qo'llab quvvatlashi;
- kam ta'minlangan axoli guruxini ijtimoiy ximoya qilinishi;
- axoli daromadlarini oqilona taqsimlash kabi yo'nalishlarni xisobga

olsak, u xolda respublikamizda olib borilayotgan siyosiy-iqtisodiy siyosat asosida bir qancha risk guruxlari yuzaga keladi. Ular quyidagilar: ijtimoiy – siyosiy risklar; iqtisodiy risklar; fiskal-monetar risklardan tashkil topgan. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, insoniyat rivojlanishining barcha bosqichlarida risklar tarixiy va iktisodiy kategoriya sifatida mavjud bo'lgan xamda xozir xam ular bizlarni o'rab turadi. Inson o'zining vaqtincha bo'sh pul mablag'ini unga qo'shimcha daromad keltirish uchun biror-bir soxaga, ishlab chiqarish, savdo, sudxo'rlikka yoki qimmatli qog'ozlarga sarflashga xarakat qiladi. Lekin bu faoliyatda ko'zda tutilmagan ob'ektiv va sub'ektiv sabablardan: ko'zda tutilmagan tabiiy xodisalar (zilzila, suv bosish va boshqalar), siyosiy sabablar (davlat to'ntarilishi, urush), qarz olgan jismoniy shaxsning bexosdan vafoti va shunga o'xshash sabablar orqali ular o'z sarmoyalarini yo'qotishlari mumkin. Shuning uchun insoniyat tabiatan riskdan qochishga xarakat qiladi. Chunki ko'zda tutilmagan, lekin extimoli mavjud xar kanday risk kelajakda o'ziga xos xususiyatga ega va ma'lum darajadagi yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan omillar asosida risklarning kelib chiqish sabablarini aniqlashimiz mumkin. Agarda biz risklarning kelib chiqishining sabablarini taxlil etsak, bu soxada barcha sabablar xam o'ziga xos mavqeini egallashining guvoxi bo'lamiz. Risklarni ayrimlarini tahlil etamiz:

1. Qonunchilik o'zgarishi bilan bog'liq risklar ma'lum mamlakatda davlat to'ntarilishi yoki xukumat tarkibining o'zgarishi natijasida amaldagi qonunga kiritiladigan o'zgartirishlarning natijasida yuzaga keladi, ya'ni xukumat tarkibi qimmatli qog'ozlar bo'yicha yangi vazifalarni amalga oshirishi mumkin, avval muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni to'lab berishdan voz kechishi, to'lov muddatini «muzlatib» ko'yishi, qimmatli qog'ozlar kursini o'zgartirishi, qimmatli qog'ozlar bozoridagi savdoning tartib qoidalarini o'zgartirishi va shunga o'xshash o'zgarishlar kiritishi natijasida yuzaga keladigan risklar bo'lishi mumkin. Bu erda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi va majburiy zaxiralar talabin o'zgarishi riskini hisobga olish lozim bo'ladi.

2. Inflyatsiya riski. Ushbu risk sarmoyadorlar qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarni mamlakatdagi inflyatsiya darajasining yuqori bo'lib ketishi natijasida ular oladigan foyda miqdorining kamayib ketishi xamda qilingan sarmoyani yo'qotib qo'yish bilan bog'lik riskning turidir.

3. Kredit riski. Qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqargan emitent sub'ektning moliyaviy axvolining yomonlashuvi natijasida qimmatli qog'ozlar bo'yicha majburiyatlarni bajara olmaslik tufayli yuzaga chiqadigan riskdir.

Har qanday xo'jalik sub'ektlari kabi tijorat banklarining faoliyatini pirovard maqsadi daromad topishdan iboratdir. Xalqaro amaliyotda tijorat banklarining ma'lum daromad topish uchun olib boradigan faoliyati aktiv operatsiyalar deb nomlanadi. O'z mohiyatiga asosan tijorat banklarining o'zlik va yuridik hamda jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb etilgan mablg'laridan o'z nomidan ma'lum daromad topish uchun olib boradigan faoliyati aktiv operatsiyalar hisoblanadi

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarini olib borish faoliyati jarayonida ma'lum daromad topishga harakat qiladi. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida amaldagi qonunchilik tomonidan belgilangan me'yorlarga amal qilishlari lozim. Tijorat banklari o'zlarining faoliyati uchun o'rnatilgan likvidlik darajasini saqlab turishlari hamda aktiv operatsiyalarni turlari bo'yicha yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan risklarni (risklarni) oqilona taqsimlashlari shart.

Bankning kredit faoliyati, uni boshqa bank bo'lmagan tashkilotlardan farqlovchi asosiy mezonlardan biridir. Jahon amaliyotida aynan kreditlash bilan bank foydasining talaygina qismi bog'liq. Shu bilan bir vaqtda, kreditlarning, asosan, yirik kreditlarning qaytarilmasligi, bankning sinishiga sabab bo'lishi mumkin. Banklar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ularda mavjud risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklari, ularning sifati va darajasini aniqlash hamda tahlil qilishdan iborat.

Kredit riski deb, qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya'ni kredit summasining (qisman yoki to'liq) va u bo'yicha foizlarning shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmasligi tushuniladi. SHuning uchun kredit risklarini aniqlash va boshqarish har qanday tijorat banklarining rivojlanish va taraqqiy etish maqsadiga erishish uchun ishlatiladigan kurash usullarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Kredit risklarining banklar uchun dolzarb muammoligi shundaki, kredit riski mavjud bo'lgan holda, kreditor (bank)da qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasining shartlarini, uning o'z majburiyatlarining belgilangan vaqtda bajara olish imkoniyatiga ishonchsizlik hosil bo'ladi. Ma'lumki, bank amaliyotida foyda asosan berilgan kreditlar bo'yicha olingan foizlardan tashkil topadi. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkasining yoki kreditning asosiy summasining o'z vaqtida to'lanmasligi yoki umuman to'lanmasligi oqibatida bank foydasining kamayishi bankning kelajakdagi mablag'lari salmog'ining tushib ketishiga olib keladi. Shuning uchun kreditorlar ular bergan mablag'larning qaytishi bilan bog'liq risklarni kamaytirishga harakat qiladilar.

Qarz oluvchi faoliyatida mavjud risklar darajasini kreditor kredit bergunga qadar, keyinchalik kredit bergandan keyin, undan foydalanish davomida aniqlash mumkin. Riskni minimallashtirish maqsadida kreditor kredit berishdan oldin riskni aniqlashga harakat qiladi.

Kredit riskining yuzaga kelishiga quyidagi hollar sabab bo'lishi mumkin:

a) turli xil makro va mikroiqtisodiy omillar, iqtisodiy qonunchilik va me'yordagi o'zgarishlar;

b) qarz oluvchi faoliyatidan bo'ladigan iqtisodiy va siyosiy muhitdagi o'zgarishlar salbiy xollar tufayli olingan kreditni to'lashga mos pul oqimini tashkil qila olmaslik;

v) kreditning ta'minlanganligi uchun olingan garovning qiymati va sifati bo'yicha to'liq ishonchning yo'qligi;

g) yuqori bilimga ega bo'lgan bank xodimlari va mijozlarning etishmasligi;

d) qarz oluvchi sub'ektning mahalliy yoki davlat miqyosida obro'sini tushib ketishi, uning ishchanlik faoliyatidan yuzaga kelgan o'zgarishlar va boshqalar.

Kredit munosabatlarida kreditorlar kreditga yoki qarzga berilgan summaning o'z vaqtida qaytarib to'lanishini va mo'ljallangan foiz stavkalarini belgilangan vaqtda olishni kutadilar.

Tijorat banklarining investitsion faoliyatiga mas'ul bo'lgan tashkiliy tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan, ularning ishlarini tashkillashtirishni va samarasini yaxshilash, kadrlar potentsialini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biz bitiruv malakaviy ishimizning keyingi bobida tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatligini aniqlash tartibini tahlil etamiz.

II BOB. TIJORAT BANKLARI KREDITLASH FAOLIYATIDA MIJOZNING KREDITGA LAYOQATLILIGINI ANIQLASHNING TAHLILI

2.1. Tijorat banklarida kredit operatsiyalarining tahlili (OATB “Agrobank” misolida)

O'zbekiston Respublikasida eng nufuzli va yirik bank hisoblangan ochiq aktsiyadorlik tijorat “Agrobank”da mijozlarga kreditlar berish bank tomonidan tasdiqlangan kredit siyosatiga asosan olib boriladi.

Bankning mamlakat iqtisodiyotining qishloq xo'jalik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash bo'yicha etakchiligi, mamlakat bo'ylab keng tarmoqli filiallar, barqaror kapitallashuv darajasi va an'anaviy mijozlar bazasiga egaligi, xorijiy banklar hamda moliya institutlarining kredit liniyalari mavjudligi raqobatdoshlik imkoniyatlarini kengaytiradi.

2012 yil davomida mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib belgilangan vazifalarni bajarish, bankning kapitallashuvi va investitsiyaviy faolligini yanada oshirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlarning ustuvor yo'nalishlarini qayta tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik jihatdan yangilashga qaratilgan kreditlash hajmini yanada kengaytirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha izchil choralar amalga oshirildi.

Bankning moliyaviy barqarorligini baholovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lgan aktivlar hisobot yili yakunida 1 trln. 964 mlrd. so'mni tashkil etib, bunda daromad keltiradigan aktivlar 70 foizni yoki 1 trln. 379 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 21 foizga yoxud 243 mlrd. so'mga o'sishiga erishildi. Daromad keltiradigan aktivlar tarkibida kredit qo'yilmalari 88 foizni yoki 1 trln. 208 mlrd. so'mni, boshqa banklardagi mablag'lar 8 foizni yoxud 111 mlrd. so'mni va investitsiyalar 4 foizni yoki 62 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Bank aktivlari tarkibida yuqori likvidli aktivlarning barqaror sur'atlarda o'sishi o'z navbatida bankning moliyaviy barqarorligiga zamin yaratdi. Xususan, yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi salmog'i 15 foizga etib, 284 mlrd. so'm miqdorida shakllandi. Yuqori likvidli aktivlar tarkibida Markaziy bankdagi hisobvaraqlar qoldig'i 98 mlrd. so'mdan iborat bo'lib, shundan 57 mlrd. so'mini majburiy zaxira jamg'armasidagi mablag'lar tashkil etdi. Biz bitiruv malakaviy ishimizning quyidagi jadvalida OATB "Agrobank"ning moliyaviy holati to'g'risidagi yig'ma hisobotini keltiramiz.

1 jadval

**«Agrobank» ochiq
aktsiyadorlik-tijorat bankining aktivlar
tarkibidagi o'zgarish dinamikasi¹¹**

(mlrd.so'mda)

T/R	Aktivlarning nomlanishi	2011 yil		2012 yil	
		summa	ulush	summa	ulush
Aktivlar					
1	Kassadagi naqd pullar	35,3	2,2	77,3	4,0
2	O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankdagi pul mablag'lari	98,6	8,2	98,3	5,1
3	Boshqa banklardagi mablag'lar	71,5	4,5	110,9	5,8
4	Chet el sarmoyasi ishtirokidagi bankka qilingan investitsiyalar	16,0	2,0	17,0	1,3
5	Mijozlarga berilgan kreditlar	992,8	62,1	1207,5	63,1
6	Moliyaviy ijara	0,7	0,01	1,5	0,01
7	Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar	13,0	1,8	14,7	0,7
8	Asosiy vositalar va boshqa nomoddiy aktivlar	65,2	4,1	59,5	3,1
9	Sotuvga mo'ljallangan aktivlar	27,3	2,7	45,1	2,3
10	Soliq bo'yicha talablar	7,6	0,4	8,3	0,4
11	Boshqa aktivlar	268,4	18,0	272,4	14,2
	Jami aktivlar	1596,4	100,0	1912,5	100,0

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari tahlili shundan dalolat beradiki, OATB "Agrobank" aktivlar tarkibida mijozlarga berilgan kreditlar asosiy ulushni egallaydi. 2011 yilda bankning jami aktivlar tarkibida 62,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2012 yilda 63,1 foizni tashkil etgan. OATB "Agrobank"

¹¹ OATB "Agrobank" yillik xisobotlari asosida tayyorlandi

aktivlar tarkibida naqd pullar 4,0 foizni, boshqa tijorat banklaridagi mablag'lar 5,8 foizni tashkil etgan. Bank aktivlar tarkibida sotishga mo'ljallangan mol-mulkning ulushi 2,3 foizni tashkil etdi. OATB "Agrobank" hozirda iqtisodiy nochor korxonalarni o'z balansiga olib, ularni modernizatsiya qilib sotuvga qo'yimoqda. Biz bitiruv malakaviy ishimizning quyidagi jadvalida OATB "Agrobank"ning foyda va zararlar to'g'risidagi yig'ma hisobotini keltiramiz.

2 jadval

**«Agrobank» ochiq aktsiyadorlik-tijorat bankining foyda va zararlar
to'g'risida yig'ma hisoboti¹²**

(mlrd.so'mda)

T/R	Daromadlarning va xarajatlarning nomlanishi	2011 yil		2012 yil	
		summa	foiz	summa	foiz
1	Foizli daromadlar – jami	139,3	0	174,2	0
2	Foizli xarajatlar - jami	96,4	0	111,1	0
3	Sof foizli daromadlar	42,9	31,7	63,1	33,4
4	Vositachilik bo'yicha daromadlar	101,8	0	138,8	0
5	Vositachilik bo'yicha xarajatlar	23,9	0	32,8	0
6	Sof vositachilik daromadlari	77,9	57,5	106,0	56,4
7	Valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromad	1,7	1,4	2,4	2,2
8	Olingan dividendlar	2,3	1,8	1,1	0,7
9	Boshqa operatsion daromadlar	10,4	7,6	13,6	7,3
10	Jami foizli va foizsiz daromadlar	135,2	100,0	186,2	100,0

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari tahlili shundan dalolat beradiki, OATB "Agrobank"dagi daromadlar tarkibida asosiy o'rinni mijozlarga vositachilik xizmatlaridan keladigan daromad egallab turibdi. Agarda vositachilik xizmatlaridan kelgan daromadlar bankning jami daromadlar tarkibida 2011 yilda 57,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2012 yilda 56,4 foizni tashkil etdi. OATB "Agrobank"ning jami daromadlar tarkibida foizli daromadlar 2011 yilda 31,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2012 yilda 33,4 foizni tashkil etdi. Agarda bankning aktivlar tarkibida mijozlarga berilgan kreditlarning ulushi 2012 yilda 63,1 foizni tashkil etgan, lekin foizli daromad ulushi past darajada. Buning asosiy sababi shundan iboratki, OATB "Agrobank" tomonidan

¹² OATB "Agrobank" yillik xisobotlari asosida tayyorlandi

asosan qishloq xo'jaligidagi fermer xo'jaliklarini imtiyozli kreditlar ajratib kelinmoqda.

OATB "Agrobank" daromadlar tarkibida boshqa operatsion daromadlar 7,3 foizni valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlar 2,2 foizni va qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlar 0,7 foizni tashkil etdi.

Yuridik va jismoniy shaxslarga kompleks xizmat ko'rsatish uchun shart-sharoitlar yaratish, omonatlar hamda depozitlarning yangi, manfaatli turlarini taklif etish yo'li bilan bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va mahalliy hamda xorijiy moliya institutlarining maqsadli kredit liniyalarini o'zlashtirish bo'yicha izchil choralar ko'rilishi natijasida bankning majburiyatlari 1 trln. 666 mlrd. so'mga etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26-noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida aholi omonatlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlari depozitlari qoldig'ini 2011-2015 yillarda 2,5 martaga ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2012 yilning 31 dekabr holatiga jami depozitlar 1 trln. 78 mlrd. so'mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 115 foizga o'sdi. Bankning jami depozitlari tarkibida yuridik shaxslarning depozitlari 457 mlrd. so'mni yoki 42 foizni hamda jismoniy shaxslardan qabul qilingan omonatlar miqdori 621 mlrd. so'mni yoxud 58 foizni tashkil etdi.

Bankning jami resurslar bazasi 1 trln. 859 mlrd. so'mga etdi hamda o'tgan yilga nisbatan 298 mlrd. so'mga yoki 19 foizga o'sishiga erishildi.

Bankning umumiy kapitalini 2011-2015 yillar davomida o'rtacha 2.1 martaga oshirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida hisobot sanasiga jami kapital 298 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 61 mlrd. so'mga o'sdi. Bunda ustav kapitali 167 mlrd. so'm, zaxira fondi 105 mlrd. so'm va taqsimlanmagan foyda 24 mlrd. so'm miqdorida shakllandi.

2012 yil davomida bankning maqbul darajada kapitallashuvi hamda likvidligini unga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi va majburiyatlarning o'z

vaqtida amalga oshirilishi uchun etarli darajada bo'lishi bo'yicha Markaziy bank tomonidan belgilangan tegishli iqtisodiy me'yorlar bajarilishi ta'minlandi. Xususan, kapitalning etarlilik koeffitsienti 13,6 foizni, 1-darajali kapitalning etarlilik koeffitsienti 14,7 foizni va leveraj 13,4 foizni tashkil etdi.

Bank faoliyati jahonning nufuzli xalqaro reyting agentliklari hisoblanmish "Mudis" hamda "Fitch Reytings" kompaniyalari tomonidan "barqaror" deb baholandi. SHuningdek, "Ahbor-Reyting" milliy reyting agentligi Agrobank faoliyati natijalarini milliy ko'rsatkichlar bo'yicha eng yuqori "uzA+" "Barqaror" prognozi bilan baholadi.

2.2. Tijorat bankida kreditlash jarayonining tahlili

O'zbekiston Respublikasida amalda bank faoliyati qonunchiligiga asosan har bir tijorat banki har yili O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklarining kredit siyosatiga doir talablar to'g'risida» gi Nizomga asosan o'z faoliyatining barcha xususiyatlarini hisobga olgan xolda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kreditlar berishning ushbu bank uchun o'z Nizomini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, hamda Nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

Nizomda tijorat banki va kredit oladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida beriladigan kredit yuzasidan barcha xuquqiy asoslar ko'zda tutilgan. Nizom beriladigan kredit qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga va bank xatarini minimallashtirish uchun maxsus koeffitsientlarga asosan kredit berishni ko'zda tutadi. SHuni ta'kidlash lozimki, ushbu Nizomda zarar ko'rib ishlayotgan, balansi nolikvid, o'z oborot mablag'lari kamayib ketishiga, ular umidsiz debitorlik qarzlariga yo'naltirilishiga yo'l qo'ygan, sifat pastligi yoki narx yuqoriligi tufayli tayyor maxsulotning nolikvid zahiralarini to'planib qolgan, katta jarimalar to'layotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga bank tomonidan kredit bermaslik belgilab qo'yilgan. Ushbu holat bilan tijorat banki o'z faoliyatida yuqorida ta'kidlab o'tgan xo'jalik sub'ektlariga kredit ajratmasligining xuquqiy asosini yaratgan va ularga qonunan rad javobini berish imkoniyatiga ega bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi tijorat bankida ham har yili bank tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga va jismoniy shaxslarga kredit berish to'g'risidagi Nizom ishlab chiqiladi va ushbu Nizom bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi. Bu Nizom quyidagi tarkibiy qismdan iborat:


1. Umumiy qoidalar. Bu moddada qaysi xo'jalik sub'ektlariga kredit berishlik, kreditni berishdagi majburiy shartlar, kredit muddatlari ko'zda tutilgan;
2. Kreditlarni rasmiylashtirish tartibi. Bu moddada kredit olish uchun taqdim etiladigan xujjatlar ro'yxati, biznes reja, kredit maqsadi, miqdori, kredit narxi, uni to'lash bo'yicha moliyaviy imkoniyatlar bo'yicha talablar ko'zda tutilgan;
3. Kreditlash tartibi. Bu moddada xo'jalik yurituvchi sub'ektga beriladigan kreditni ta'minot bilan berish yoki ta'minotsiz, ya'ni ishonchga asoslangan kredit berishni tanlash ko'zda tutilgan;
4. Kredit uchun to'lov. Bu moddada kreditdan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq foiz stavkasini aniqlash ko'zda tutilgan;
5. Kredit ta'minoti. Bu moddada kredit qaytarilmasligi xatarini bartaraf etish maqsadida, kredit sharti sifatida qarz oluvchi xo'jalik yurituvchi sub'ekt bankni qoniqtiradigan ta'minot taqdim etishi ko'zda tutilgan;
6. Kreditlash turlari. Bu moddada bank tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni «kredit yo'nalishi ochib», «kredit yo'nalishi ochmasdan» qarz hisobvaraqlar orqali kreditlash turini aniqlash ko'zda tutilgan;
7. Kreditlar monitoringi. Bu moddada bank tomonidan qarz oluvchi faoliyatini doimiy nazorat qilib borish, uning kredit qobiliyatini, to'lov intizomini taxlil qilish va ma'lumotlar bazasini vujudga keltirish ko'zda tutilgan.

Tijorat banki mijozlarga kredit ajratishda juda oqilona kredit siyosatini olib borishi lozim. Buning uchun qarz oluvchining moliyaviy ahvoli muntazam nazorat qilib borilishini ta'minlash, uning to'lov layoqati va kredit qobiliyatini aniqlash, xatarli belgi-alomatlarini o'z vaqtida aniqlash, kreditni qaytarilmaslik xataridan ximoya qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rish uchun bank kredit berish bosqichida ham, kreditlashning keyingi davrlarida ham to'lov kredit to'liq so'ndirilguncha qarz oluvchining to'la-to'kis moliyaviy xisoboti bo'lishi kerak.

Biz quyidagi chizmada tijorat bankida kreditlash jarayonini keltiramiz

2 rasm

Tijorat bankning kreditlash jarayoni¹³



Qarz oluvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklariga taqdim etiladigan xisobotlar ro'yxati bankning kreditlash masalalarini tartibga soluvchi ichki me'yoriy xujjatlarida belgilab qo'yiladi. Qarz oluvchining moliyaviy hisoboti buxgalteriya xisobiga oid amaldagi qonunlarga muvofiq bo'lishi hamda bankka kredit shartnomasida belgilangan hajmda va muddatlarda taqdim etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit olish uchun qarz oluvchi quyidagi xujjatlarni taqdim etishlari lozim:

1. Kredit miqdori, foydalanish muddati, maqsadi, uning ta'minoti, asosan qarzlarni qaytarish va foizlarni to'lash manbailari ko'rsatilgan kredit buyurtnomasi;

¹³ III.3. Абдуллаева . Банк рисклари ва кредитлаш. Т.: Молия. 2005. 128 б.

2. Korxonaning ustavi va ta'sis xujjatlari (notarial tasdiqlangan). Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma;

3. Kredit hisobidan moddiy boyliklar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun qarz oluvchi bilan tuzilgan shartnomalar nusxasi;

4. Korxonaning so'nggi 2 moliya choragi uchun vakolatli davlat soliq inspeksiyasi tasdiqlagan quyidagi buxgalteriya hisobotlari;

a) Buxgalteriya balansi – 1 forma (choraklik)

b) Moliyaviy natijalar to'g'risida xisobot-2 forma (choraklik)

v) Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot 3-forma (choraklik)

g) Pul oqimlari to'g'risida hisobot 4-forma (choraklik)

d) O'zlik kapital to'g'risida hisobot – forma yillik;

5. Agarda qarzdor xususiy tadbirkor bo'lsa. U holda pasport, patent va litsenziya nusxalari;

6. Debitorlik-kreditorlik qarzdorligining ularni vujudga kelgan muddati bilan talqini;

7. Boshqa korxonalarni tashkil etishda o'z sarmoyasi bilan qatnashgani yoki qatnashmagani to'g'risidagi ma'lumotlar;

8. Kredit o'zini oqlashi hisob-kitobi chiqarilgan kreditlash davri uchun biznes reja. O'z oborot mablag'larini to'ldirish uchun kredit berilayotganda biznes-reja xo'jalik boshqaruvining yuqori organi (vazirlik, idora) tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak;

9. O'z oborot mablag'larini to'ldirish uchun kredit berilayotganda qo'shimcha ravishda yana quyidagilar ham taqdim etiladi:

a) Mablag'larga bo'lgan extiyoj hisob-kitobi;

b) Yangi ishlab chiqarishlarning joriy etish, texnikaning yangi turlarini o'zlashtirish orqali qo'shimcha foyda olishga qaratilgan tashkiliy-texnikaviy tadbirlar rejasi, qo'shimcha foyda olish xisob-kitobi. Ular xo'jalik boshqaruvining yuqori organi (vazirlik, idora) tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak;

10. Kredit o'zini oqlashi hisob-kitobini chiqarish hamda kredit berishning maqsadga qanchalik muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilish uchun bankka kerak bo'ladigan boshqa qo'shimcha xujjatlar.

«Agrobank» OATB tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qisqa muddatli kreditlash va rasmiylashtirish tartibi

Iltimosnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

a) pul oqimi tahlilini majburiy tarzda ko'rsatgan holdagi Biznes-reja;
b) so'nggi hisobot sanasiga, debitorlik va kreditorlik qarzdorlikni batafsil ochib ko'rsatilishi hamda muddati 90 kundan ziyod qarzdorlikning solishtirish dalolatnomalarini ilova qilgan holda soliq organi tomonidan va mustaqil auditorlik kompaniyasi xulosasi bilan tasdiqlangan buxgalterlik balansi;

v) foyda va zararlar xaqida hisobot;

g) pul oqimlari harakati to'g'risida hisobot;

d) aylanma mablag'lar aylanish tezligining hisob-kitobi;

e) boshqa kreditorlar qarz mablag'lari va boshqa banklarda saqlanayotgan bo'sh mablag'lar mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

j) o'z kapitali bilan boshqa korxonalarni barpo etishda ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlar. Layoqatli qarz oluvchi kredit olish uchun o'zining moliyaviy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini quyidagilarni aniqlash maqsadida tahlil etishi lozim:

a) o'z mahsulotini sotish bozorini (talab va taklifni o'rganish);

b) ustidan kredit olinishi ko'zlanayotgan tovar-moddiy qimmatliklar etkazib berishga bo'lgan kontraktlar, ishlab chiqarish harajatlari yoki xizmatlar va ular sotilishini ta'minlanganligini;

v) kreditlanayotgan tadbir samaradorligini;

g) qarz oluvchi xisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushishi davriyligini;

d) kredit va u bo'yicha foizlarni so'ndirish manbasini;

e) kredit uchun ehtimolli to'lov hisob-kitobi va uning davriyligini;

j) bundan oldingi davr (yil, chorak, oy) xo'jalik-moliyaviy faoliyatning retrospektiv tahlilini;

z) joriy davrga prognozni (Biznes-reja). Kredit so'ndirilmasligi xavf-xataridan holi bo'lish maqsadida, qarz oluvchi asosiy mezonni sotilish bo'lgan ta'minot turiga ega bo'lishi lozim.

Sug'urta to'lovini berilayotgan kredit hisobidan to'lash taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 31 avgustdagi 119-1 raqamli Qarorining ilovasida keltirilgan ro'yxatdagi korxona va mulklar garov predmeti bo'la olmaydi. Qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlariga asosan mulk va boshqa ta'minot turlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

a) boshqa garovdan holi bo'lishi;

b) aktivlarni pul mablag'lariga aylana olish qobiliyati tushuniladigan, yuqori likvidlikka ega bo'lish;

v) uzoq vaqt saqlana olish xususiyatiga ega bo'lish. Kafil shaxs sifatida faqat to'lovga qobiliyatli nufuzli sub'ekt obro'siga ega yuridik shaxs bo'lishi mumkin. Kafillik shartnomasiga quyidagilar ilova qilinadi:

a) kafil moliyaviy holatining qoniqarli ekanligini tasdiqlovchi audit tashkiloti yoki auditorning xulosasi;

b) shaxsning kafil nomidan shartnomaga qo'l qo'yish xuquqini tasdiqlovchi hujjatlar;

v) kafil shaxs bank hisobvarag'ining holati to'g'risidagi ma'lumotnoma;

g) kafilning boshqa banklardagi, qoldig'i ko'rsatilgan holda, barcha bank hisobvaraqlari to'g'risida ma'lumot;

d) kafilning o'z banki oldida ssuda va boshqa qarzdorligini yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma;

e) kafil shaxsda 2 raqamli kartoteka yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma.

Kreditlash va kreditlarni so'ndirish tartibi:

Kredit, 12 oydan ko'p bo'lmagan muddatga qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan iltimosnoma asosida beriladi va kredit shartnomasi hamda muddatli majburiyat bilan rasmiylashtiriladi. Kredit belgilangan muddatda so'ndirilishi lozim. So'ndirish muddati etib kelib, qarz oluvchida pul mablag'lari mavjud bo'lmasa, kredit, muddati o'tgan ssudalar xisobvarag'i orqali undirishga taqdim

etiladi. Ushbu kredit bo'yicha majburiyatlar esa 2 raqamli kartotekaga joylashtiriladi va kalendar navbatida so'ndiriladi.

Agrobank tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini o'rta va uzoq muddatli kreditlashni tashkil etish qoidalar:

O'rta va uzoq muddatli kreditlar

– bu, qurilish, qayta qurish, ishlab chiqarish va ijtimoiy yo'nalish ob'ektlarini texnik qayta jixozlash, texnika, texnologiya hamda uskunalar sotib olish, asosiy podani shakllantirish, ko'p yillik ekinlar harajatlari bilan bog'liq kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish xamda boshqa investitsiya maqsadlariga mo'ljallangan kreditlardir. O'rta muddatli kredit

- bu bir yildan ziyod bo'lgan va 5 yilgacha muddatga beriladigan ssudadir, uzoq muddatli kredit - bu 5 yildan ziyod, ammo qoplanish muddatidan ziyod bo'lmagan muddatga beriladigan ssudadir.

O'rta va uzoq muddatli kreditlar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda ro'yxatga olingan yuridik va jismoniy shaxslar bo'lmish xo'jalik sub'ektlariga beriladi. Kreditlanayotgan ob'ekt qiymatining 25 foizi miqdorida o'z yoki boshqa mablag'lar manbalari hisobiga moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlangan kredit ob'ektlari kreditlashga tavsiya etiladi.

Kreditlanayotgan xo'jalik sub'ektlariga ob'ektlar qurilishi uchun tugallanmagan ishlab chiqarishida ishga tushirish muddatlari o'tkazib yuborilgan o'xshash kreditlanayotgan ob'ektlar va ilgari berilgan ssudalar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar yo'q bo'lgan xolatdagina kreditlar berilishi mumkin.

O'rta va uzoq muddatli kreditlar qaytimining asosiy ta'minot turlari bo'lib quyidagilar xisoblanadi:

a) xukumat kafolatlari;

b) qiymati berilayotgan kredit qiymatining 125 foizidan kam bo'lmagan mulk garovi;

v) banklar, boshqa kredit tashkilotlari va sug'urta kompaniyalarning kafolati;

g)qimmatli qog'ozlar;

d)bankda depoziti mavjud bo'lgan uchinchi shaxslar kafilligi va kreditdan foydalanish muddatiga mazkur depozitlarni muzlatilganligi to'g'risida bank kafolati;

e) qarz oluvchining kreditni so'ndira olmaslik xatari qonunga muvofiq faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyasining tasdiqlangan sug'urta polisi (guvoxnomasi) bilan sug'urtasi.

Kredit xisobiga texnika, texnologik va boshqa uskunalar sotib olinganda bank ixtiyoriga ko'ra ular o'z qiymatining 80 foizigacha miqdorida mazkur kreditning ta'minoti bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banki qarz oluvchi mijoz yuqorida qayd etilgan zarur hujjatlar to'liq to'plami kredit so'rab ariza berilgan sanadan boshlab hisoblanuvchi quyidagi muddatlarda taqdim etmasa, unga kredit berish masalasini ko'rib chiqmaydi;

-oborot sarmoyasi sifatida foydalanishga beriladigan kreditlar bo'yicha –1 oy;

-investitsiya loyixalari uchun – 3 oy;

Bank tomonidan rad javobi berishning bunday sababi tegishli tarkibiy bo'linmaning kredit bo'limi beradigan xulosa xamda Kredit Qo'mitasi bayoni bilan birga rasmiylashtirilib, qarz oluvchiga yozma ravishda taqdim etiladi. Tijorat banklarida kredit operatsiyasi juda katta riskga ega. SHuning uchun bankda kredit riskini pasaytirish uchun turli usullardan foydalaniladi.

Tijorat bankida kredit operatsiyani olib borishda yuzaga keladigan risklarni oldini olish maqsadida zahiralash tizimidan ham foydalaniladi. Mazkur siyosat bankning ichki me'yoriy hujjati bo'lib, bankning barcha filiallari tomonidan kreditlash amaliyotlarini amalga oshirishlari jarayonida unda ko'rsatib o'tilgan talablarga qat'iy rioya etishlari majburiy hisoblanadi. Bank filiallarida xizmat ko'rsatilayotgan xo'jalik sub'ektlarini kreditlash ularning moliyaviy xo'jalik faoliyati natijalari chuqur tahlil qilib ko'rilgandan keyin faqatgina tijorat asosida amalga oshiriladi.

Kredit siyosatini qabul qilinishidan asosiy maqsad aktsiyadorlar manfaati uchun bankning aktiv operatsiyalaridan yuqori daromad olinishini ta'minlash, bank likvidligini etarli darajada saqlab turish, xatarlarni kamaytirish, kreditlash jarayonini bankning barcha filiallarida bir xillashtirish hamda amaldagi qonunchilikka va me'yoriy hujjatlarga qat'iy rioya qilinishidan iboratdir.

Ushbu siyosat kreditlashni quyidagi samarali jarayonlarini hamda nazorat turlarini qo'llash orqali kredit xatarlarini minimal darajada kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan:

1. Kredit rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonni va ajratilgan kreditlar ustidan nazorat o'rnatishni;
2. Doimiy ravishda samarali kredit monitoringi olib borish orqali ularni real tasniflashni hamda zahiralar shakllantirishni;
3. Muammoli kreditlarni bartaraf etishni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan zaruriy samarali jarayonlarni qo'llashni;
4. Kreditlar ustidan monitoring o'rnatish hamda kreditlar bo'yicha o'zaro majburiyatlarni sifatli bajarilishi yuzasidan hisobotlarni qabul qilish bo'yicha samarali axborotlar almashish tizimini joriy qilishni.

Xalqaro tajribadan ma'lumki bankning kredit portfelida mablag'larni iqtisodiyotning bitta tarmog'iga mansub korxonalar, o'zaro aloqador guruhlar yoki shaxslar hissasiga yig'ilib qolishi kredit xatarlarini oshishiga olib keladi. SHu sababdan Bankning siyosati filiallar tomonidan ushbu vaziyatni yuzaga kelmasligi maqsadida O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1998 yil 2 dekabrda 557-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to'g'risida"gi nizomga muvofiq ishni tashkil etish, doimiy monitoring va tahlil ishlarini olib borishni talab qiladi.

Kreditlarning kontsentratsiyalanishini oldini olish maqsadida kreditlar bo'yicha (markazlashgan resurslar hisobidan berilgan kreditlar bundan mustasno) quyidagi me'yoriy darajalar o'rnatiladi:

- bir qarzdor yoki o'zaro daxldor qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchiliklarning eng yuqori darajasi 1 bosqichli bank kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak;

- ishonchli kreditlar uchun tavakkalchilikning eng yuqori darajasi 1-bosqichli bank kapitalining 5 foizidan oshmasligi zarur;

- bankning barcha yirik kreditlarining umumiy hajmi 1-bosqichli bank kapitalidan 8 martadan oshib ketmasligi kerak.

Aksariyat hollarda bank filiallari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning asosiy qismi ma'lum bir ta'minotlar asosida beriladi. Lekin bank va qarzdor tomonidan hech qachon kreditlarni ta'minoti sifatida rasmiylashtirilgan garov narsalari kreditni qaytarilishini birinchi darajali manbai deb qaralmasligi kerak. Ta'minot sifatida taqdim etiladigan hujjatlar kreditni belgilangan muddatda va to'liq hajmda qaytarilishi uchun qo'shimcha manba sifatida xizmat qiladi. SHuning uchun qarzdorning pul oqimlariga kreditni qaytari-lishining birinchi darajali manbai sifatida, ta'minot turlariga esa ikkinchi darajali qo'shimcha manbaa sifatida qaralishi kerak. Garov narsasining likvidliligi, sifati va tez sotiluvchan-ligi katta ahamiyatga ega ekanligi sababli ularni qiymati kredit berilishidan oldin tegishli ruxsatnomaga ega bo'lgan baholovchilar tomonidan tasdiqlanishi zarur.

Garov bilan ta'minlangan kreditlar shunday bo'lishi kerakki, kreditni undirishni garovga taqdim etilgan mulkka qaratish holatlari yuzaga kelganda uni sotishdan tushadigan mablag' kreditni va hisoblangan foizlarni to'liq qoplanishiga etarli darajada bo'lishi kerak. Shu maqsadda har bir kredit qo'mita a'zosi kredit berilgunga qadar garov mulkini qanchaga baholanganligi to'g'risidagi xulosaga ega bo'lishi zarur.

Kreditni qaytmay qolish xatarini kamaytirish maqsadida qarz oluvchi tomonidan ishonchli kreditlardan tashqari barcha kreditlarga asosiy talabi tez sotilish xususiyatiga ega bo'lgan quyidagi ta'minot turlaridan biri rasmiylashtirilishi kerak:

1. Mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi;
2. Banklar, boshqa kredit muassasalari yoki sug'urta kompaniyalarining kafolati;

3. Uchinchi shaxslarning kafilligi;
4. O'z faoliyatini qonunchilikda belgilangan tartibda yurituvchi sug'urta idoralarining kreditni qaytmay qolish xatarini sug'urtalaganligi haqidagi sug'urta polisi.

Bunda kredit berish faqat sug'urta to'lovi sug'urta kompaniyasining bank hisobvarag'iga o'tkazilganligi va qarz oluvchi bankka sug'urta polisini taqdim etganidan keyingina amalga oshirilishi mumkin. Sug'urta polisida qarz oluvchi olingan kreditlarni va u bo'yicha foizlarni to'lay olmagan taqdirda sug'urta tashkiloti kreditning barcha summasini va u bo'yicha hisoblab chiqarilgan foizlarni to'lash ma'suliyatini o'z zimmasiga olishi to'g'risidagi yozuv bo'lishi kerak.

Beriladigan kredit hisobidan sug'urta to'lovini to'lash ta'qiqlanadi.

Bank filiallari zarur hollarda qarz oluvchidan kredit xatarini kamaytirish va kredit yig'ma jildlarini sifatli shakllantirish maqsadida kredit ajratish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ma'lumotlarni ham talab qilishlari mumkin. Kredit xodimi qarz oluvchidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha hujjatlarni olgandan keyin quyidagilarni aniqlaydi:

- xo'jalik sub'ektini kreditga qobilligini, uning reyting bahosini, likvidlik koeffitsientidan majburiy tartibda foydalangan holda pul mablag'larini qoplashni, alohida ishlatishni, jalb etishni, aylanma mablag'larning foyda keltirishini va aylanish tezligini

- kreditni maqsadi ustav faoliyatiga mos kelishini va kredit turini.

Kreditlarni yillik inventarizatsiyasi bank filiallaridagi muammoli kreditlarni o'z vaqtida aniqlash maqsadida o'tkaziladi va har bir filialni kredit portfelini yaqqol baholash imkoniyatini yaratadi.

2.3. Tijorat bankida mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashning tahlili

Tijorat banklarida mijozning kreditga layoqatligini aniqlash tartibi o'z ichiga bir qancha bosqichlarni oladi. Biz bitiruv malakaviy ishimizda ushbu

bosqichlarning mohiyatini yoritamiz.

Kredit to'plamini shakllantirish va uni tahlil qilish jarayoni quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

a) kredit olish uchun buyurtmanomani ko'rib chikish va bo'lajak qarz oluvchi bilan suxbatlashish;

b) qarz oluvchining kredit kobiliyatining va qarz berish bilan bog'liq xatarni baholash;

v) kredit narxi (foizni) belgilash;

g) kredit shartnomasini tayerlash va uni to'zish. Potentsial qarz oluvchi kredit olish uchun o'z moliyaviy hamda ishlab chikarish imkoniyatlarini qo'yidagi jixatlarda tahlil qilish lozim:

- o'z maxsulotini sotish bozori (talab va taklifni urganish);

- kredit olish uchun tarovga kuyiladigan tovar moddiy boyliklarni etkazib berish uchun to'zilgan shartnomalar, ishlab chikarish harajatlari va ularni sotish kay darajada ta'minlanganligi;

- kreditlanayotgan tadbir samaradorligi;

- qarz oluvii hisob varag'iga pul mablag'lari tushishi davriyligi;

- kredit uchun extimol tutilgan tulov hisob-kitobi va uning davriyligi;

- avvalgi davrdagi moliyaviy xujalik faoliyati respektiv tahlili;

- joriy davr uchun xomcho't (biznes reja).

Kreditni qaytarish qobiliyati – xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy ahvoliga beriladigan baho, ularning kreditlarni o'z vaqtida va to'liq qaytara olish qobiliyati.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kredit qaytarish qobiliyati bir qancha ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Ko'rsatkichlar soni cheklanmaydi va ularni har bir tijorat banki o'zi xizmat ko'rsatadigan mijozlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga asoslanib, mustaqil ravishda belgilaydi. Ushbu tartibda kredit qobiliyatining majburiy zarur ko'rsatkichlari ko'rib chiqiladi. Bular: qoplash koeffitsienti, likvidlik va o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik (muxtoriyat koeffitsienti), shuningdek o'z oborot mablag'lari mavjudligi noto'lovlar

dinamikasi, oborot mablag'lari foyda keltirishi va aylanishi koeffitsientlari.

Kredit qobiliyatini baholashda balans hamda xo'jalik yurituvchi sub'ekt ko'rgan foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot tahlili asos bo'ladi. Bundan tashqari, zarur hollarda kredit qobiliyatini baholash chog'ida istiqbolni belgilash va statistika idoralarning ma'lumotlaridan, bankning o'zidagi statistika, hamda tahlil materiallaridan va boshqa ma'lumotlardan foydalaniladi.

Qo'yidagi koeffitsientlar kredit qobiliyatining asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Qoplash, likvidlik, muxtoriyat koeffitsienti va o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari.

❖ Qoplash koeffitsienti qisqa muddatli likvid mablag'lar bilan qisqa muddatli majburiyatlar orasidagi nisbat sifatida hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning likvid aktivlari uning qisqa muddatli majburiyatlaridan kamida ikki baravar ortiq bo'lganda uning moliyaviy ahvoli yaxshi hisoblanadi. Bu yuqori mezon chegarasidir. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning likvid aktivlari uning qisqa muddatli majburiyatlari xajmiga teng bo'lgan hollardagi ko'rsatkich quyi chegara sifatida olinadi.

Ayni paytda ishlab chiqarish xarakteri, xo'jalik yurituvchi sub'ekt aktivlari tarkibi kabi omillar uning balansining likvidligini birmuncha o'zgartirib ko'rsatishi mumkin.

Turli omillar ta'sirini pasaytirish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar balansining likvidlik ko'rsatkichi hisoblab chiqiladi. Bu ko'rsatkich pul mablag'lari va oson sotiladigan talablar bilan qisqa muddatli majburiyatlar orasidagi nisbat sifatida belgilanadi, ya'ni bunda tovar – moddiy boyliklar zahirolari hisob-kitobga qo'shilmaydi, balki fakat real likvid aktivlar hisobga olinadi.¹⁴

LK q	PM +OST
	QM

bunda:

¹⁴ OATB "Agrobank" kredit siyosati ma'lumotlari asosida tayyorlandi

LK – likvidlik koeffitsienti;
 PM – pul mablag'lari;
 OST – oson sotiladigan talablar;
 QM – qisqa muddatli majburiyatlar.

Mazkur koeffitsient joriy majburiyatlarning qancha qismini naqd pullar, jo'natilgan maxsulotlar, qilingan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun kutilayotgan tushumlar orqali qoplanishini ko'rsatadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z manbalari bilan qanday ta'minlanganligi (yoki muxtoriyat koeffitsienti) xo'jalik o'z manbalarining korxona balansi passivi umumiy yakunidagi ulushini hisoblash yo'li bilan baholanadi va u korxonaning mablag'i qarz olish manbalariga muxtoj emasligini aks ettiradi.

O'z manbalari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti quyidagi formula yordamida aniqlanadi.¹⁵

K q	O'z mablag'lari manbalari
	Balans valyutasi

bunda:

MK – muxtoriyat koeffitsienti;

O'z mablag'lari mablag'lari – 480 satr (balansning passiv bo'limining 1 – qismi) ayrilgan 290 satr (ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi);

Balans valyutasi – 780 satr (jami passiv) ayrilgan 022 satr (nomoddiy aktivlarning qodiq qiymati);

Korxona o'z manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Oborot mablag'lari aylanish tezligi katta bo'lgan hollarda xo'jalik organi faoliyat turiga karab, bu ko'rsatkichning yo'l qo'yiladigan darajasi biroz pastroq bo'lishi mumkin.

Agar bu koeffitsient 0,6 dan yuqori, ya'ni 60 foiz bo'lsa, kredit xatari minimal darajaga tushirilgan hisoblanadi.

Kredit qaytarish qobiliyati qo'shimcha ko'rsatkichlariga qo'yidagilar kiradi: o'z oborot mablag'lari mavjudligi dinamikasi, foydalilik, noto'lovlar va

¹⁵ OATB "Agrobank" kredit siyosati ma'lumotlari asosida tayyorlandi

oborot mablag'lari aylanish sur'ati.

O'z oborot mablag'lari mavjudligi:

$$O'OMM = O'MM - AV$$

O'OMM – o'z oborot mablag'lari mavjudligi;

O'MM – o'z mablag'lari manabalari (480 satr + 490) ayrilgan uzoq muddatli kreditorlik qarzlarning muddati o'tgan qismi;

AV – asosiy vositalar va oborotdan tashqari aktivlar 130 satr.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy vositalar va oborotdan tashqari aktivlari (balans aktivining 1-bo'limi) uning o'z mablag'laridan ortiq bo'lgan hollarda nolikvid balans vujudga keladi. Nolikvid xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bank kreditlaridan foydalanishga haqli emaslar.

3 jadval

Sinflar bo'yicha kredit qaytarish qobiliyati asosiy ko'rsatkichlari talablari¹⁶

T/r	Nomlanishi	1 sinf	2 sinf	3 sinf
1	Qoplash koeffitsienti	$QK \geq 2,0$	$2 > QK \geq 1,0$	$1 > Kp > 0,5$
2	Likvidlik koeffitsienti	$LK \geq 1,5$	$1,5 > Kl \geq 1,0$	$1 > Kl > 0,5$
3	Muxtoriyat koeffitsienti	$MK \geq 60\%$	$60\% > Ka \geq 30\%$	$30\% > Ka > 15\%$

YUqoridagi ko'rsatilgan koeffitsientlar hisoblab chiqilgandan so'ng ilovadagi jadvalga asosan mijozning kreditga layoqatlilik qobiliyati darajasi aniqlanadi.

1 – sinfga mansub korxonalar umumiy tartibda kreditlanadilar. Ularga nisbatan ba'zi imtiyozlar berilishi mumkin, ya'ni ishonchli kredit berish, qonunda va bankning ichki kredit siyosatida ko'rsatib o'tilgan imtiyozlar qo'llanilish mumkin;

2 – sinfga mansub korxonalar ham umumiy tartibda, qo'shimcha ijobiy ko'rsatkichlar mavjud bo'lgan taqdirda ba'zi imtiyozlar qo'llangan xolda

¹⁶ OATB "Agrobank" kredit siyosati ma'lumotlari asosida tayyorlandi

kreditlanishi mumkii (ishonchli kreditlar berish bundan mustasno);

3 – sinfga mansub korxonalar kreditga layoqatsiz deb hisoblanib, ularni kreditlash fakat yuqori foiz stavkalarini qo'llagan holda, yuqori tashkilot kafolati yoki yuqori likdvili mulkni garovga qo'yish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin;

4 –sinfga mansub korxonalar kreditlanmaydi. Lekin xukumatning alohida qarorlariga ko'ra istisnolar qo'llanishi mumkin;

OATB "Agrobank"da mijozlarga ajratiladigan kreditlarni rasmiylashtirish jarayoni o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) kredit olishga kredit buyurtmasini ko'rib chiqish va bo'lg'usi qarz oluvchini uning xuquqiy maqomini aniqlash maqsadida o'rganib chiqish. Kredit buyurtmasida quyidagilar ko'rsatiladi:

1) qarz oluvchining xuquqiy maqomi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar (tashkiliy-xuquqiy shakli, ta'sischi lari, Ustav bo'yicha asosiy faoliyat turi va shu kabilar);

2) so'ralayotgan kredit xajmi, ssudani qanday maqsadlarga yo'naltirilishi va loyixaning maqsadi;

3) kreditning muddati;

4) so'ralayotgan kredit hajmining aktiv summasiga bo'lgan nisbati;

5) kreditlanayotgan ob'ektning qoplanish muddati;

6) kreditni berish va so'ndirish xamda unga xisoblangan foizlarni qaytarish muddatlari;

7) kredit ta'minotiga qo'yiladigan qimmatliklar to'g'risida mag'lumot, agarda kredit qimmatliklar garovi ustidan berilayotgan bo'lsa;

8) qarz mablag'lari to'g'risida ma'lumot;

9) boshqa banklarda ochilgan xisobvarag'lar to'g'risida ma'lumot;

10) boshqa korxonalar kapitallaridagi ishtiroki xaqida ma'lumot;

a) qarz oluvchi moliyaviy xolatining taxlili va kredit layoqatliligini baxolash;

b) qarz oluvchining pul oqimi;

v) kreditlanayotgan loyixaning kompleks ekspertizasi;

g) kredit shartnomasini rasmiylashtirish va tuzish. Kredit buyurtmasini ko'rib chiqish muddati 3 bank ish kuni. Agar kreditlash ob'ekti bo'lib qurilish, ishlab chiqarishga mo'ljallangan ob'ektlarni qayta qurish va ularni texnik jixatdan qayta qurollash xisoblansa, kreditlanayotgan loyixa moliyaviy xolatining taxlili, kreditga layoqatliligini baxolash xamda ushbu loyixa kompleks ekspertizasini o'tkazish uchun qarz oluvchi bankka quyidagilarni taqdim etishi lozim:

a) ta'sis etish xujjatlari;

b) loyixaning o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslanishi va loyixa-smeta xujjatlari;

v) qurilish qiymatining yig'ma smeta-moliyaviy hisob-kitoblari;

g) qurilish manzil-ro'yxatining o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan ro'yxati;

d) bajarilgan ishlar uchun xisob-kitob shakllari ko'rsatilgan xolda qurilish davriga mo'ljallangan pudrat shartnomalari (kontraktlar);

e) texnologik uskunalarni etkazib berish bo'yicha kontrakt loyixasi. Ushbu loyixada import jihozlarni erkin muomalada yuradigan valyuta xisobiga sotib olish ko'zda tutilgan bo'lsa, mazkur qarz oluvchi korxonani tovarlar (ishlar, xizmatlar) importining prognozlariga kiritilganligini tasdiqlovchi O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot Vazirligining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xamda Respublika pul-kredit sisyosati bo'yicha komissiyasi bilan o'rnatilgan tartibda kelishilgan xati;

j) loyixa xujjatlari bo'yicha davlat idoradan tashqari Arxitekqurilishdavlatqo'mitasi va davlat ekologik ekspertizalari xulosalari;

z) qarz oluvchi (yuridik shaxslar) kreditga layoqatliligini aniqlash uchun so'ngi 3 yillik moliyaviy xisoboti (1, 2, 2a, 5 moliyaviy xisobot shakllari);

i) kreditni ta'minlanganligini tasdiqlovchi xujjatlar. Agar kredit ko'chmas mulk garovi bilan ta'minlangan bo'lsa, unda kredit yig'ma jildiga quyiladigan qo'shimcha xujjatlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

1) xisobotning baxosiga muvofiq garov predmeti bozor qiymatini qo'llab-quvvatlash va taqo'oslash uchun etarli ma'lumotlar xamda taxlilni o'z ichiga olgan baxolash to'g'risida xisobot va qiymatni aniqlash uslubi;

2) garovga olingan narsaning sotuv baxosini tasdiqlovchi xujjatlar, agarda kredit ushbu garovni sotib olishni moliyalashtirishga taqdim etilgan bo'lsa. Agar kredit boshqa shaxs tomonidan kafolatlangan bo'lsa, kredit yig'ma-jildida quyidagi qo'shimcha xujjatlar bo'lishi kerak:

- kafolat beruvchi (kafil) shaxsning qoniqarli moliyaviy xolatini tasdiqlovchi audit tashkiloti yoki auditorning xulosasi;

- shaxsning, kafolat beruvchi (kafil) shaxs nomidan shartnoma (majburiyatlar)ga imzo chekish xuquqini tasdiqlovchi xujjatlar;

k) ob'ekt joylashgan erdan foydalanish xuquqini tasdiqlovchi xujjatlar, maxalliy xukumat idoralari tomonidan boshlanayotgan yangi qurilishga ruxsatnoma;

l) qurilishni, amalga oshirish uslubi va mulkiy maqomidan qat'iy nazar, xar qanday turini amalga oshirishga Davarxqurilishnazorat yoki uning maxalliy organlari ruxsati;

m) zarurat tug'ilganda bank investitsiya loyixasining amalga oshirilish darajasi va qarz oluvchining to'lovga layoqatliligini tasdiqlovchi boshqa xujjatlarni talab qilishi mumkin.

Turar joylarning ichki muxandislik kommunikatsiyalari va umumiy foydalaniladigan joylarni qayta qurish va kapital ta'mirini amalga oshirishni moliyalashga kreditlar 24 oygacha muddatga, kredit muddatini uzaytirish xuquqisiz, berilishi mumkin. Mazkur kreditlar bo'yicha foiz stavkalari imtiyozli bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasi me'yoridan yuqori belgilanishi mumkin emas. Kredit shartnomasi bank va qarz oluvchi orasidagi munosabatlar asosi bo'lib, imzolangan daqiqadan boshlab olingan kreditlar, vositachilik xaqlari, foizlar va ular bo'yicha penyalar to'la so'ndirilgunga qadar, agarda ushbu shartnoma bilan o'zga xolat ko'zda tutilmagan bo'lsa, xarakatda bo'ladi.

Bank qarz oluvchi bilan kelishilgan xolda kredit shartnomasida oldindan ko'zda tutiladigan qoplanish muddati va pul oqimining prognozlarini xisobga olgan xolda kreditlashning imtiyozli davrini o'rnatishga xaqli.

Imtiyozli kreditlash davri mobaynida foizlar xisob-kitobi balansdan tashqari xisobvaraqlarda amalga oshiriladi.

Bank tomonidan mablarlarni iqtisodiyotning real sektorlariga, xususan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, shu orqali axrli uchun zarur bo'lgan iste'mol maxsulotlarini ishlab chiqaradigan ixcham minitexnologiyalarni sotib olish, yangi ishchi urinlari yaratish xamda ular tomonidan maxsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar kursatishni kupaytirishga aloxida axamiyat berilmokda.

Biz bitiruv malakaviy ishimizning keyingi bobida mamlakatimizda tijorat banklarida mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash tartibini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqamiz.

III BOB. TIJORAT BANKLARIDA MIJOZNING KREDITGA LAYOQATLILIGINI ANIQLASHNING TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Tijorat banklarida mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashning xorij tajribasi

Mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash va unga kredit berishlik imkoniyatini baholash tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Mijozning kreditga layoqatliligini tahlil etishda tijorat banki mijozga beriladigan kreditning maqsadga muvofiqligini va kredit shartnomasida ko'zda tutilgan shartlar asosida kreditning qaytarishlilik imkoniyati ko'rib chiqiladi. Ushbu maqsadlar uchun xalqaro amaliyotda tijorat banklari turli moliyaviy koeffitsientlar, pul oqimi va tadbirkorlik qaltisligini baholashdan foydalanadilar.

AQSHda tijorat banklari tomonidan mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash uchun hamda beriladigan kredit riskini (tavakalchiligini) imkoniyati darajasida minimallashtirish uchun ular tomonidan ishlab chiqilgan 5-“S” lar qoidasi nomli usuldan juda keng foydalanadilar. Ushbu usul asosida tijorat banki tomonidan mijoz faoliyatini baholashning quyidagi mezonlari yotadi:

1. **“Customer character”** – mijozning mavqei;
2. **“Capacity to pay”** – mijozning to'lovga qobiliyatligi;
3. **“Capital”** – mijozning sarmoyasi (kapitali);
4. **“Sollateral”** – beriladigan ssudaning ta'minlanganligi;
5. **“Current business conditions and goocln : LL»** – iqtisodiy kon'yuktura va uning rivojlanish istiqbollari.¹⁷

Tijorat banki mutaxassislari ushbu usul yordamida kredit oluvchi mijozning mavqei, obro'si, uning ma'suliyati darajasi, olgan qarzini qaytarib to'lab berishga bo'lgan xoxish – istagi va tayyorgarligini tekshiradi. Ushbu usul

¹⁷ Банковское дело. Учебник. под. ред. проф. Г.Г. Коробовой. М.: - “Экономистъ” 2006.

yordamida dastavval mijozning o'tmishda (qarz olgunga qadar) o'z qarz majburiyatlariga qanday munosabatda bo'lganligi; olingan qarzlarni qaytarib to'lashda qanday kamchiliklar bo'lganligi; kredit oluvchi mijozning mamlakat iqtisodiyotida milliy (yoki baynalminal) bozorda qanday mavqega ega ekanligi o'rganiladi va tekshiriladi. Bu erda tijorat bankining mutaxassislari mijoz bilan ochiq suxbat olib boradi, bank arxividan ushbu mijoz to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni olib ularni o'rganib chiqib, taxlil etadi. Ushbu mijoz to'g'risida boshqa tijorat banklari va u bilan aloqada bo'lgan turli firmalar bilan maslahatlashiladi. Mijozning to'lov qobiliyatida uning barcha moliyaviy imkoniyatlari, olingan kreditni qaytarib to'lash qobiliyati, foyda va zararlari hamda kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni puxta taxlil qilish orqali aniqlanadi va shu bilan birga bank mutaxassislari asosiy e'tiborlarini yanada boshqa omillarga ham, shu jumladan, mijozning aktsiyadorlik sarmoyasiga (kapitaliga), uning tarkibiy tuzilishiga, aktiv va passivlarining boshqa moddalriga bo'lgan nisbatiga hamda olingan qarzning ta'minlanishiga, uning etarlilik darajasiga, sifatiga va to'lamaslik holatida qo'yilgan garovning likvidlilik darajasiga qaratadilar.

Yuqoridagi jarayonlar amalga oshirilgandan so'ng tijorat bankining mutaxassislari o'zlarining asosiy e'tiborini mijozning mamlakatdagi egallagan umumiy shart-sharoitlari hisoblangan; iqtisodiy xolatning hozirgi zamon ahvoli, mijozning ishbilarmonlik darajasi, u tomondan ishlab chiqariladigan tovar maxsulotlari bo'yicha bozorda boshqa ishlab chiqaruvchilar tomonidan raqobatning mavjudligi, mijoz to'laydigan soliqlar va yig'implar, foydalaniladigan xom-ashyoga bo'lgan narx-navolar taxlil etiladi. Taxlil natijasida iqtisodiy kon'yuktura va uning mijozning ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari aniqlangan taqdirda kreditga bo'lgan talabnoma qondiriladi.

AQSHdan farqli ravishda Buyuk Britaniyada tijorat banklari mijozlarning kreditga layoqatliligini aniqlashda **“Parts”** nomini olgan metoddan foydalanadilar. **“Parts”** metodi o'zida risklarni baholashda quyidagi mezonlardan foydalaniladilar:

- **Purpose** - Kreditning maqsadi-

- **Amount** - Beriladigan kreditning miqdori-
- **Repayment** - Qarzdorlikni to'lab berish- (asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar)

- **Term** - Muddat

- **Security** - Kreditning ta'minoti

Angliyaning ixtisoslashgan kliring tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda mijozlarning kreditga to'liq ma'lumotlardan foydalaniladigan **"PARSER"** va **"CAMPARI"** metodlaridan keng foydalaniladilar.

"PARSER" o'z mohiyatiga asosan quyidagi mezonlarni o'z ichiga oladi:

- **"Person"** bo'lajak qarzdorning mavqei to'g'risidagi ma'lumot;
- **"Amount"** – bo'lajak qarzdorning so'ralayotgan kredit miqdorining asosnomasi;
- **"Repayment"** – olinadigan kreditning to'lab berish imkoniyati;
- **"Security"** – kredit uchun qo'yilayotgan garovni baholash;
- **"Expendiency"** - beriladigan kreditning maqsadga muvofiqligi;
- **"Remuneration"** – beriladigan kredit bo'yicha tijorat bankining mukofoti va kredit bo'yicha qaltislik darajasi.

"CAMPARI" metodi quyidagi mezonlardan iborat:

- **"Character"** – bo'lajak mijozning mavqei;
- **"Ability"** – bo'lajak mijozning biznesini baholash;
- **"Means"** – mijozning kreditga ehtiyojini tahlil etish;
- **"Purpose"** – olinadigan kreditning maqsadi;
- **"Amount"** – olinadigan kredit summasining asosnomasi;
- **"Repayment"** – olingan kreditni qaytarib berish imkoniyati;
- **"Insurance"** – kredit riskini sug'urta qilish usuli.¹⁸

Yuqorida ta'kidlab o'tgan metodlardan tashqari boshqa metodlar bor. Lekin, mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash bo'yicha barcha metodlar

¹⁸ Банковское дело. Учебник. под ред. проф. Г.Г. Коробовой. М.: - "Экономистъ" 2006.

asosida kredit olish uchun murojaat etgan har bir mijoz to'g'risida mijoz to'g'risidagi zarur barcha ma'lumotlarni yig'ish, ularni umumlashtirish va chuqur tahlil etishni tashkil qiladi.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashning barcha metodlar talablari har bir tijorat bankida maxsus Nizomga jamlangan va uni bajarilishi qat'iy nazoratga olingan.

Ma'lumki, kredit qo'yilmalarining iqtisodiyotning turli tarmoqlari va bankni mijozlari guruxi o'rtasida diversifikatsiyalash esa, bank tizimini rivojlantirishdagi raqobatbardoshlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan holda, bank sektorini monopoliyadan chiqarishni kuchaytiradi. Tijorat banklari faoliyatining universallashtirish banklararo raqobatning shakllanishiga, ularning iqtisodiyotning bozor tamoyillari asosida faoliyat ko'rsatishga undaydi. Iqtisodiyotning tarmoqlari (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo va boshqalar) bo'yicha kredit portfelining diversifikatsiyasi mijozlar bozorida banklararo raqobat uchun qulay shart-sharoit yaratish bilan bevosita bog'liqdir. O'z vaqtida sog'lom raqobat tijorat banklari tomonidan bank xizmatlari bozorini yanada kengaytirish zaruriyatini belgilaydi, ya'ni universallashtirishning ob'ektiv sharti sifatida namoyon bo'ladi. Shu erda ta'kidlash lozimki, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari o'z mijozlariga 300 ga yaqin turli xildagi bank xizmatini taklif etadi.

Jahon bank amaliyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, juda ko'p tijorat banklari bank kapitalining katta qismi kredit qo'yilmalari sifatida bir yoki bir necha guruh qarzdorlarga yoki ma'lum bir tarmoqni kreditlash evaziga berilgan qarzlarning qaytarilmasligidan to'planib qolinishi natijasida bankrotlikka uchraganlar. O'tgan asrning 80 yillarda bankrotga uchrab singan banklarning umumiysidan 60 foizida biz yuqorida ta'kidlab o'tgan holat yuzaga kelgan.

3.2. Tijorat banklarida mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashning takomillashtirish yo'llari

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklarining kredit siyosatini boshqarishda bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlab o'tishiiz lozim. Ana shunday muhim xususiyatlardan birining mohiyati shundaki, respublikamiz tijorat banklarida muddati o'tgan kreditlarning umumiy kredit qo'yilmalardagi salmog'i kichik bo'la turib, banklarning foiz marjasi nihoyatda yuqoridir. Xozirgi vaqtda respublikamiz tijorat banklarida o'rtacha foiz marjasi 12-14 punktni tashkil qiladi.

OATB "Agrobank"da kredit qo'yilmalarini kredit tavakkalchiliklarini oqilona boshqargan holda tahlil qilish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni dastlabki davridayoq aniqlash orqali ogohlantiruvchi tizim yaratilib, muddati o'tgan kreditlarning to'liq qaytarilishi yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jahon amaliyoti hamda bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasining tamoyillaridan kelib chiqqan holda OATB "Agrobank"ning kredit ajratish va moliyalashtirish mexanizmlari izchil takomillashtirilib, kredit siyosati hamda kreditlashga oid ichki me'yoriy hujjatlari qayta ishlab chiqildi.

Bu siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlarida agrosanoat kompleksi tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnika va texnologiyalarni yangilashga yo'naltirilgan faol investitsiyaviy siyosatni amalga oshirish, zamonaviy xorijiy texnologiyalar hamda uskunalarni jalb etish, shu asosda yuqori sifatli, jahon va ichki bozorlarda raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash hamda ichki iste'mol bozorini mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror to'ldirib borish vazifalari belgilandi.

Kredit axboroti milliy instituti (KAMI) elektron bazasiga ma'lumotlarni taqdim etish hamda ma'lumotlar almashuvini ta'minlash borasidagi ishlar tubdan qayta ko'rib chiqildi. KAMI elektron bazasi orqali ma'lumotlar almashuvi bankning kreditlar ajratish jarayonidagi tavakkalchiliklarni minimallashtirish, qarz

oluvchi xo'jalik sub'ektlari hamda kafil tashkilotlarning kredit tarixini tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, "Axbor-reyting" banklararo reyting kompaniyasi bilan shartnoma asosida bankning O'zbekiston tijorat banklarining umummamlakat reytingida muntazam ishtirok etishi yo'lga qo'yilib, har chorak yakunlari bo'yicha reyting baholari natijalari matbuotda chop etildi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimidagi tijorat banklarida kredit siyosatini olib borishga xos bo'lgan ikkinchi xususiyat shundan iboratki, hozirga qadar ko'pchilik tijorat banklarida (shu jumladan OATB "Agrobank"da ham) kredit oluvchi mijozning shaxsi to'liq va mukammal o'rganiladi. Hamon tijorat banklarimizda eng asosiy e'tibor kreditlash sub'ektiga (ya'ni bank mijoziga) emas, balki kreditlash ob'ektiga (ta'minotiga) qaratiladi va qaratilmoqda. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar bank amaliyotini tahlil etsak, unda tijorat bankini ko'proq kredit oluvchi mijozning shaxsi qiziqtiradi. Bu mijozning xulq-atvori, mavqei va kredit tarixi chuqur o'rganiladi. **5-"C"** qoidasi asosida beriladigan kredit iqtisodiy jihatdan "ishonch" kreditiga o'xshab ketadi. Bu erda tijorat banki o'zining moliyaviy barqaror, lekin vaqtincha pul mablag'lariga muxtoj bo'lgan doimiy mijozlariga tez mablag'ni etkazib berish amalga oshadi. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi bank tizimidagi tijorat banklari tomonidan "5-C" qoidasidan kelib chiqadigan ijobiy tajribani o'zlarining doimiy mijozlariga qo'llashni tavsiya etish mumkin. Bu erda, birinchidan mijoz tomonidan tijorat bankiga taqdim etadigan qog'oz xujjatlar kamayadi, ikkinchidan esa tijorat banki tomonidan qarz berish muddati qisqaradi. Buning natijasida, mijoz ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun vaqtincha muhtoj bo'lgan kerakli summani o'z muddatida oladi va ishlab chiqarishni olib boradi.

Yuksak rivojlangan mamlakatlardagi tijorat va xususiy banklarning mijozlarga xizmat ko'rsatish borasidagi tajribasini chuqur o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, bu sohada korporativ boshqaruvning egallagan ahamiyati katta ekan. Chunki faqatgina malakali, hozirgi zamon o'zgarishlarini seza bila oladigan boshqaruvgina tijorat bankni bank xizmati sohasidagi raqobatda «sinib» qolishdan

va bankni yanada rivojlantirishga qodir. Agarda etarli kapitalga ega, aktivlar tarkibiy sifati a'lo darajadagi o'zgarishlarni to'g'ri tushuna eta olmaydigan va bank xodimlari bilan ishlay olmaydigan korporativ boshqaruv bu tijorat bankini tez orada parokandaga olib kelishi mumkin. SHuning uchun O'zbekiston Respublikasida bank-moliya sohasidagi ilmiy-tadqiqot institutlarini faoliyati, menejment, bank xodimlarini tayyorlash usullari va texnologiyalarini takomillashtirish sohasida aniq ishlar olib borish lozim. Bizning fikrimizcha nafaqat bank xodimlari, balki bank korporativ boshqaruvi xodimlari uchun ham O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi banklar assotsiatsiyasi va Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti qoshida maxsus qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish va ularni tayyorlash lozim. Ushbu kurslarda nafaqat mamlakatimizda bank xizmatlar bozori balki rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ilg'or bank amaliyoti o'qitilishi lozim. Shu asosda tijorat banklarimizdagi korporativ boshqaruv xodimlari o'z malakalarini doimiy oshirib boradilar.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida banklararo kredit byurosi va tijorat xamda xususiy banklari o'rtasida axborot almashish hamda qarzdorlarning kredit tarixiga oid axborot tizimini yanada takomillashtirib borish orqali tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar sifatini yanada yaxshilash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirmoq lozim. Xuddi shu erda ularning kredit tarixiga alohida e'tibor bermoq lozim. SHuning uchun faqatgina banklararo kredit byurolari o'rtasida xaqqoniy ma'lumot almashish ijobiy samara beradi. CHunki, ba'zi moliyaviy nopok mijozlar kredit tarixi ma'lumotlari ular o'tgan yangi tijorat bankiga etib keladi va bank rahbariyati tegishli xulosa chiqara olishga etarli asosga ega bo'ladi.

Biz bitiruv malakaviy ishimiz natijasida bank krediti sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarni hamda yuksak rivojlangan mamlakatlardagi bank tizimidagi ilg'or tajribalarni taxlil etgan xolda ishlab chiqqan yuqoridagi ba'zi tavsiyalarimiz O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit operatsiyalarini takomillashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda tijorat banklarining faoliyati O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi va 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlari asosida shakllantirilgan va tartibga solib turiladi. Ushbu qonunchilikda asosan bizning mamlakatimizda ko'plab rivojlangan mamlakatlardagi kabi ikki pog'onali bank tizimi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Milliy bank tizimining birinchi pog'onasida qog'oz pullarni emissiya qilishda monopol, boshqa tijorat banklari faoliyatini tartibga solib turadigan «xukumat bankchisi», mamlakatda pul muomalasini tartibga solib turadigan «banklar banki» va oltin valyuta zahiralarini saqlovchisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki turadi.

2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda 29 ta tijorat banki faoliyat yuritayotgan bo'lib, ularning 3 tasi davlat-tijorat banki, 13 tasi aksiyadorlik-tijorat banki, 9 tasi xususiy bank va 4 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Respublikamizda faoliyat yuritilayotgan barcha bank muassasalari soni 9 551 taga etdi, jumladan, banklarning filiallari 829 tani tashkil etdi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda tijorat banklarini resurs bazasini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu tadbirlar, o'z navbatida, banklarning aktiv operatsiyalar hajmini, jumladan, kreditlash va investitsiyalashimkoniyatlarini oshishiga zamin yaratdi. Tijorat banklarining jami aktivlari yil davomida 30,2 foizga oshib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 35,7 trln. so'mga etdi.

Banklar tomonidan ajratilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i esa 30,5 foizga o'sib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 20,4 trln. so'mni tashkil etdi. Ajratilgan kreditlarning 85,8 foizi ichki manbalar hisobiga berilgan bo'lib, tashqi qarzlar asosan uzoq muddatga, asosan iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-

quvvatlash bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilinmoqda.

Banklarning umumiy kredit portfelida uzoq muddatli kreditlarning ulushi esa, 76,8 foizni tashkil qilib, ularning hajmi 2011 yildagiga nisbatan 30,7 foizga oshdi. Respublikamizda bank infratuzilmasining kengayib borishi banklar o'rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmat turlari sifati va ko'lamining oshishiga xizmat qilmoqda. Bu ishlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatida kredit operatsiyalari muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda tijorat banklarining aktivlar tarkibida mijozlarga berilgan kreditlarning egallagan ulushi 50 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda. Agarda 2009 yilda bank aktivlar tarkibida kreditlarning ulushi 53,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilda 57,1 foizni tashkil etmoqda. Ushbu omil respublikamizda tijorat banklari faoliyatida kreditlarning egallagan o'rnining yuqoridaligidan dalolat beradi.

Bankning kredit faoliyati, uni boshqa bank bo'lmagan tashkilotlardan farqlovchi asosiy mezonlardan biridir. Jahon amaliyotida aynan kreditlash bilan bank foydasining talaygina qismi bog'liq. SHu bilan bir vaqtda, kreditlarning, asosan, yirik kreditlarning qaytarilmasligi, bankning sinishiga sabab bo'lishi mumkin. Banklar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ularda mavjud risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklari, ularning sifati va darajasini aniqlash hamda tahlil qilishdan iborat.

Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish maqsadida, banklar Kengashlari tarkibiga minoritar aktsiyadorlar manfaatlarini ifoda etuvchi a'zolari kiritish hamda yirik summadagi (umumiy kapitalning 15 foizi va undan yuqori miqdordagi) bitimlarini tuzish va ular bo'yicha to'lov muddatini uzaytirish to'g'risidagi qarorlarni bank Kengashi tomonidan ma'qullanish mexanizmlari joriy qilindi.

Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan qarz oluvchilarning moliyaviy holatini aniqlash uchun scoring-tahlil qilish bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi va ushbu tahlilni amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

“Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi Nizom va “Tijorat banklarining moliyaviy holati va barqarorligini baholash hamda ularning natijalarini ko'rib chiqish tartibi” qabul qilindi. Har bir bankda bevosita bank Kengashiga bo'ysunuvchi Tavakkalchiliklarni nazorat qilish Qo'mitalari tashkil etildi.

Kredit riski deb, qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya'ni kredit summasining (qisman yoki to'liq) va u bo'yicha foizlarning shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmasligi tushuniladi. SHuning uchun kredit risklarini aniqlash va boshqarish har qanday tijorat banklarining rivojlanish va taraqqiy etish maqsadiga erishish uchun ishlatiladigan kurash uchullarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Tijorat bankida kredit operatsiyani olib borishda yuzaga keladigan risklarni oldini olish maqsadida zahirialash tizimidan ham foydalaniladi. Mazkur siyosat bankning ichki me'yoriy hujjati bo'lib, bankning barcha filiallari tomonidan kreditlash amaliyotlarini amalga oshirishlari jarayonida unda ko'rsatib o'tilgan talablarga qat'iy rioya etishlari majburiy hisoblanadi.

Bank filiallarida xizmat ko'rsatilayotgan xo'jalik sub'ektlarini kreditlash ularning moliyaviy xo'jalik faoliyati natijalari chuqur tahlil qilib ko'rilgandan keyin faqatgina tijorat asosida amalga oshiriladi.

Kredit qaytarish qobiliyati – xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy ahvoliga beriladigan baho, ularning kreditlarni o'z vaqtida va to'liq qaytara olish qobiliyati.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kredit qaytarish qobiliyati bir qancha ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Ko'rsatkichlar soni cheklanmaydi va ularni har bir tijorat banki o'zi xizmat ko'rsatadigan mijozlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga asoslanib, mustaqil ravishda belgilaydi. Ushbu tartibda kredit qobiliyatining majburiy zarur ko'rsatkichlari ko'rib chiqiladi. Bular: qoplash koeffitsienti, likvidlik va o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik (muxtoriyat koeffitsienti), shuningdek o'z oborot mablag'lari mavjudligi noto'lovlar dinamikasi, oborot mablag'lari foyda keltirishi va aylanishi koeffitsientlari.

Mijozning kreditga layoqatligini aniqlash va unga kredit berishlik imkoniyatini baholash tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Mijozning kreditga layoqatliligi tahlil etishda tijorat banki mijozga beriladigan kreditning maqsadga muvofiqligini va kredit shartnomasida ko'zda tutilgan shartlar asosida kreditning qaytarishlik imkoniyati ko'rib chiqiladi. Ushbu maqsadlar uchun xalqaro amaliyotda tijorat banklari turli moliyaviy koeffitsientlar, pul oqimi va tadbirkorlik qaltisligini baholashdan foydalanadilar.

Yuqorida ta'kidlab o'tgan metodlardan tashqari boshqa metodlar bor. Lekin, mijozning kreditga layoqatliligi aniqlash bo'yicha barcha metodlar asosida kredit olish uchun murojaat etgan har bir mijoz to'g'risida mijoz to'g'risidagi zarur barcha ma'lumotlarni yig'ish, ularni umumlashtirish va chuqur tahlil etishni tashkil qiladi.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan mijozning kreditga layoqatliligi aniqlashning barcha metodlar talablari har bir tijorat bankida maxsus Nizomga jamlangan va uni bajarilishi qat'iy nazoratga olingan.

Biz bitiruv malakaviy ishimiz davomida mamlakatimiz tijorat banklarida mijozning kreditga layoqatliligi aniqlash tartibini takomillashtirish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

1. O'zbekiston Respublikasi bank tizimidagi tijorat banklari tomonidan **“5-C”**, **“PARTS”**, **“PARSER”** va **“SAMPARI”** qoidalaridan kelib chiqadigan ijobiy tajribani o'zlarining doimiy mijozlariga qo'llashni tavsiya etish mumkin. Bu erda, birinchidan mijoz tomonidan tijorat bankiga taqdim etadigan qog'oz xujjatlar kamayadi, ikkinchidan esa tijorat banki tomonidan qarz berish muddati qisqaradi. Buning natijasida, mijoz ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun vaqtincha muhtoj bo'lgan kerakli summani o'z muddatida oladi va ishlab chiqarishni olib boradi.

2. Yuksak rivojlangan mamlakatlardagi tijorat va xususiy banklarning mijozlarga xizmat ko'rsatish borasidagi tajribasini chuqur o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, bu sohada korporativ boshqaruvning egallagan ahamiyati katta ekan. Chunki faqatgina malakali, hozirgi zamon o'zgarishlarini seza biladigan boshqaruvgina tijorat bankni bank xizmati sohasidagi raqobatda «sinib» qolishdan

va bankni yanada rivojlantirishga qodir. Agarda etarli kapitalga ega, aktivlar tarkibiy sifati a'lo darajadagi o'zgarishlarni to'g'ri tushuna eta olmaydigan va bank xodimlari bilan ishlay olmaydigan korporativ boshqaruv bu tijorat bankini tez orada parokandaga olib kelishi mumkin. SHuning uchun O'zbekiston Respublikasida bank-moliya sohasidagi ilmiy-tadqiqot institutlarini faoliyati, menejment, bank xodimlarini tayyorlash usullari va texnologiyalarini takomillashtirish sohasida aniq ishlar olib borishni yanada kuchaytirish lozim.

3. Kredit resurslarini investitsiya maqsadlariga samarali taqsimlash, kredit tavakkalchiliklari darajasini kamaytirish va istiqbolli investitsiya loyihalarini tanlash bo'yicha ishlar sifatini oshirishga katta e'tibor qaratilishi, xususan, tijorat banklarda investitsiya loyihalarining ekspertizasi sifatini, shu jumladan, ushbu jarayon shaffofligini oshirish, loyiha ekspertizasi jarayonida barcha potentsial omillar va risklarni inobatga olishni ta'minlashi lozim.

4. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida banklararo kredit byurosi va tijorat xamda xususiy banklari o'rtasida axborot almashish hamda qarzдорlarning kredit tarixiga oid axborot tizimini yanada takomillashtirib borish orqali tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar sifatini yanada yaxshilash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirmoq lozim. Xuddi shu erda ularning kredit tarixiga alohida e'tibor bermoq lozim. Shuning uchun faqatgina banklararo kredit byurolari o'rtasida xaqqoniy ma'lumot almashish ijobiy samara beradi. Chunki, ba'zi moliyaviy nopok mijozlar kredit tarixi ma'lumotlari ular o'tgan yangi tijorat bankiga etib keladi va bank rahbariyati tegishli xulosa chiqara olishga etarli asosga ega bo'ladi.

Biz bitiruv malakaviy ishimiz natijasida bank krediti sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarni hamda yuksak rivojlangan mamlakatlardagi bank tizimidagi ilg'or tajribalarni taxlil etgan xolda ishlab chiqqan yuqoridagi amaliy tavsiyalarimiz O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit operatsiyalarini takomillashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

- 1.1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2010
- 1.2 O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. T. “Adolat” 2011
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasini Markaziy banki to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 2010.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 2010.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonuni T.: “O'zbekiston”2011.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida”gi qonuni T.: “O'zbekiston” 2010.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasining “Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida”gi qonuni. T.: “O'zbekiston” 2011.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari.

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2012 yildagi “Angren” maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida”gi Farmoni.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2010 y. PK-1438-son "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori.
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.04.2010 y. PK-1317-son "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'grisida"gi Qarori
- 2.4. Tijorat banklari depozitlariga axoli va xo'jalik sub'ektlari bo'sh pul mablag'larini jalb etishni yanada rag'batlantirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.04.2009 y. PK-1090-son Qarori
- 2.4. Tijorat banklarining investitsiya loyixalarini moliyalashtirishga

yo'naltiriladigan uzok muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni ragbatlantirish borasidagi ko'shimcha chora-tadbirlar to'grisida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.07.2009 y. PK-1166-sonli Qarori

2.5. "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 07.11.2007 y. N PQ-726

2.6. "Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 12.07.2007 y. N PQ-670

2.7. "Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 19.12.2006 y. N PF-3831

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

3.1. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli isloxotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. "Xalq so'zi" 19.01.2013

3.2. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosichga ko'taradigan yil bo'ladi. T."O'zbekiston" 2012. -36b

3.3. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T.: "O'zbekiston" 2011. 54b.

3.4. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T.: "O'zbekiston". 2009. -48 b.

4. Sohaga oid me'yoriy hujjatlar

4.1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari to'plami. T.: 2010.

4.2. "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom. T. 2010 yil

4.3. Kredit axboroti milliy institutining ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda banklararo kredit byurosiga va tijorat banklariga kredit axbortlarni taqdim etish tartibi to'g'risida Nizom. 2004 y. 21 may.

4.4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 11.06.2005 y. N 42-1 (13/8) "Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zahiralarini shakllantirish va undan foydalanish Tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi qarori

4.5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan 02.11.1998 y. n 421 "Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida" Nizom.

4.6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvi tomonidan 1998 yil 2 noyabrda 420 son bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998 yil 2 dekabrda 560 son bilan ro'yxatdan o'tgan «Tijorat banklari kapitalining etarlicha qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom»

5. Asosiy adabiyotlar

5.1 Абдуллаева Ш.З «Банк иши», Т.: «Молия» 2005 й.

5.2 Абдуллаева Ш.З. «Банк рисклари ва кредитлар» Т.: «Молия» 2005 й

5.3 Анна Эрлих «Технический анализ товарных и финансовых рынков». М.: «Инфра-М» 2004. -173с.

5.4 Балабанов А.И., Боровкова Вик. Банки и банковское дело: учебник. 2-е изд. –СПб.: Питер, 2009.-448с.

5.5 Банковские операции: учеб. пособ. для средн. Проф. Образования / под ред. Ю.И. Коробова. – М.: Магистр, 2007. – 446 с.

5.6 Банковские операции: учебное пособие / кол. авторов ; под ред. О.И. Лаврушина. - М.: КНОРУС, 2007. - 384 с.

5.7 Банковские операции: учебное пособие / кол. авторов; под.ред. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2010. – 384 с.

5.8 Банковское дело: Учеб. / Под ред. Г. Белоглазовой, Л. Кроливецкой - СПб: Питер, 2008. - 400с.

5.9 Банковское дело: Экспресс – курс: Учеб. пособ. / Под ред О.И. Лаврушина М.: Кнорус , 2008 -352с. Бурлак Г.Н., О.И.Кузнецова «Техника валютных операций». – М.: «ЮНИТИ» 2004.

5.10 Ермаков. С.Л. Основы организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: КНОРУС, 2009 – 656с.

5.11 Жарковская. Е.П. Банковское дело: Учеб. - М: «ОМЕГА -Л»,2008 – 476 с.

5.12 Краливецкая Л.Н. Банковское дело: кредитная деятельность коммерческих банков: учеб. пос. – М.: КНОРУС, 2008. – 280 с.

5.13 Муллажонов Ф.М. ва бошқалар. Ўзбекистон Республикаси банк тизими. Т.”Ўзбекистон” 2011.

5.14 Rashidov O. Y. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. T.: “Cho’lpon” 2011.

5.15 Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник под.ред.акад В.К.Сенчагова, А.И.Архипова. –М.: «Проспект». 2010. 366 б

5.16 Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник под.ред.акад Г.Б.Поляка. –М.: «ЮНИТА-ДАНА» 2010.

6. Qo’shimcha adabiyotlar

6.1 O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi” mavzusidagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. – T.: Iqtisodiyot. 2012. – 282 b

6.2 B.Yu.Xodiev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G’ofurov. “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir” ma’ruzalarini o’rganish bo’yicha o’quv uslubiy majmua. T. Iqtisodiyot.2010. – 214 b

7. Davriy nashrlar, statistik to’plamlar va hisobotlar

- 7.1 Bozor, pul va kredit// №1-12 2012. №1-4, 2013 yil.
- 7.2 Bank axborotnomasi, gazetasi 2012 yil №1-52, 2013 yil № 1-12.
- 7.3 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining yillik hisobotlari
- 7.4 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari
- 7.5 OATB "Agrobank" yillik hisobotlari

8. Internet saytlari

- 8.1 www.thebanker.com
- 8.2 www.forex.com
- 8.3 www.bankinfo.uz
- 8.4 www.uzland.uz
- 8.5 www.Google.uz
- 8.6 www.cer.uz